

**N.A. EGAMBERDIYEVA**

**INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA  
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR  
NUTQI USTIDA ISHLASHNING  
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**EGAMBERDIYEVA NIGORA AZIZOVNA**

**INKLYUZIV TA‘LIM SHAROITIDA  
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQI  
USTIDA ISHLASHNING ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARI**

*Monografiya*

«SARBON LLS»  
Toshkent – 2024

UO\*K 376;808.5  
KBK 74.3;83.7  
E-37

**N.A. Egamberdiyeva**

Inklyuziv ta'lim sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning zamonaviy texnologiyalari / monografiya. – T.: 2024.

**Mas'ul muharrir:**

**F.U.Qodirova** – CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**U.Y.Fayziyeva** – CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasini p.f.n. dotsent

**M.M.Abdullayeva** – Nizomiy nomidagi TDPU "Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim" fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari p.f.b.f.d (PhD), v.b dotsent

Ushbu monografiyada hozirgi kunda alohida ehtiyojli bolalar orasida dolzarb masalaga aylangan autizm sindromli bolalar haqida yoritilgan. Autizm spektrida kamchiliklari bor bolalar sonining ortib borishi hamda ushbu sindromda kamchiliklarning turli-tumanligi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning alternativ yo'nalishini tanlash mushkul vazifa hisoblanadi. Keltirib o'tilgan masalani hal etishda ushbu monografiyada autizm sindromli bolalarning bilish jarayonlari, nutq va muloqot komponentlarini tekshirish metodikalari, nutqini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha korreksion ishlarning mazmuni, metod va tamoyillari, va shart-sharoitlari, inklyuziv ta'lim sharoitida tuzatish ishlarini olib boruvchi ta'lim subyektlari hamda ularning vazifalari ochib berilgan.

UO\*K 376;808.5  
KBK 74.3;83.7

ISBN 978-9910-780-13-4

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
<b>I BOB. AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Autizm sindromli bolalarning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	9
1.2. Autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirish tamoyillari va samarali yo'llari.....	30
1.3. Inklyuziv ta'lim sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida.....	39
<b>II BOB. AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV TA'LIM SUBYEKTLARI FAOLIYATINING INTEGRATSIYASI.....</b>	<b>46</b>
2.1. Mikromuhit va muloqot.....	46
2.2. Autizm sindromli bolalar ijtimoiylashuvida muloqotning o'rni va uni egallashdagi to'siqlar.....	51
<b>III BOB. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQI USTIDA ISHLASHNING MAZMUNI, USULI VA SHART-SHAROITLARI.....</b>	<b>63</b>
3.1. Inklyuziv ta'lim sharoitida autizm sindromli bolalarni korreksion-rivojlantiruvchi ish jarayoni.....	63
3.2. Autizm sindromli bolalar bilan ishlashda metodik tavsiyalar.....	75
<b>XULOSA.....</b>	<b>77</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>79</b>

## KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida mamlakatimizning ustuvor siyosatidan biri albatta, bu har bir yosh avlodni intellektual salohiyatli, jismonan sog'lom, ma'naviyati yetuk, har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Davlatimizning bir qator qonun va qarorlarida jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'rgatish, sog'lom tengqurlari qatoridan o'rin egallab, o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ko'rsata olishga, ma'nani yetuk inson bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-y.)[1], O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni[3], "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni[5] va boshqa bir qator qonun va qarorlar alohida ta'lim ehtiyojli bolalar ham o'zining sog'lom tengdoshlari kabi ta'lim-tarbiya olish huquqiga ega ekanligini belgilaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-sonli "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi[2], 2020-yil 15-oktabrdagi O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi[5] va 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari[3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi[9], 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[8], 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-sonli "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi[10] hamda 2016-yil 26-dekabrda PQ-415-sonli "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi[4], 2007-yil 17-maydagi PQ-100-sonli "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to'g'risida"gi[11] hamda 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-

sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari[6] va boshqa hujjatlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Va bu ishlarning davomi o'laroq prezidentimiz tomonidan 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb atalishi hamda 2023-yil 27-fevraldagi PQ-74-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori fikrimizning dalilidir[7].

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli Qarori[12] hamda 2021-yil 11-avgustdagi "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 510-sonli Qaroriga muvofiq alohida ta'lim ehtiyojiga ega maktabgacha yoshdagi bolalar ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun jalb etilishi qonuniy hujjatlar orqali belgilab berilgan[13].

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega deb shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot ko'nikmalarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan shaxs tushuniladi. Birlashgan millatlar tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra taxminan 450 million insonda ruhiy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklar mavjudligi aniqlangan. Bu ko'rsatkich yer yuzi aholisining 1/10 qismini tashkil etadi. Bunday insonlar qatoriga eshitishi va ko'rishida, ruhiy, aqliy rivojlanishida, tayanch-harakat a'zolarida hamda og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan shaxslar kiradi. Shu bilan birga bunday nuqsonlarning og'irlik darajasi va bir-biri bilan qo'shib, murakkab nuqson hosil qilganligi bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda bu kabi rivojlanish kamchiliklari orasida autizm spektridagi buzilishlar alohida e'tiborga molik bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, autizm spektrida buzilishlari bor bolalar 2000-yilda 10 000 nafar boladan 4 - 26 nafarida, 2005-yilda 250-300 nafar bolaning, 2008-yilda har 150 nafar bolaning birida uchraydi. AQSHning kasalliklarni nazorat

qilish markazi 2012-yildan to 2019-yilga qadar avval har 88 nafar, so'ng har 59 nafar bolaga 1ta autizm holati, 2022-yilda esa har 44 nafar bolaning birida uchrashini ko'rsatmoqda[16]. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ushbu rivojlanish buzilishining chastotasini tobora o'sib bormoqda. Shu munosabat bilan, autizm spektri buzilgan bolalarni ijtimoiylashuv muammolari dolzarb masalaga aylangan.

Autizm sindromli bolalarga ijtimoiy yordam turlaridan biri zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy reabilitatsiya hisoblanadi. Alohida yordamga muhtoj shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiyalash ijtimoiy yordamning murakkab, zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir hamda uning asosiy vazifasi maxsus tashkil etilgan vositalar yordamida shaxsning ijtimoiy mavqeini tiklash bilan birga uning ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirokini ta'minlashdir.

Autizm spektrida buzilishlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishida – nutqning kechikishi yoki yetishmasligi, suhbatni boshlash yoki davom ettira olmaslik, maqsadli monologik nutq va boshqa bir qator o'ziga xos xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatlarining yetishmasligi kabi to'sqinlik qiluvchi kamchiliklar kuzatiladi.

ASB bolalarda og'zaki muloqotning rivojlanmaganligi bilan birga noverbal vositalar (imo-ishoralar, mimikalar) va muqobil aloqa tizimlaridan foydalanish shaklida o'z-o'zidan qoplanmasligi ma'lum.

Shu sababli kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish darajasini baholash usullarini tanlash, autizm sindromli maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan differensial pedagogik korreksion tizimini ishlab chiqish va eksperimental sinovdan o'tkazish zarurati mavjudligi ko'rindi.

Mavzuning dolzarbligi tadqiqot muammosini aniqladi: pedagogik tuzatish tizimidagi qaysi yo'nalishlar autizm spektrli maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot ko'nikmalarini samarali shakllantirishga yordam beradi.

Autizm spektridagi buzilishlari bor tashxisi bu XXI asr vabosi sifatida qaralib, oxirgi yillarda ko'pgina mutaxassislarning diqqat e'tiborida. Bizning mamlakatimizda ham bu tashxisga ilk e'tibor 2010-yilda qaratilib, ilk bor klinik tashxis sifatida qo'yildi. Bu

davrgacha bo'lgan vaqtda autizm sindromli bolalarga ham bolalar shizofreniyasi deb tashxis qo'yilib kelingan.

"Autizm" atamasini fanga psixiatr shifokor E.Bleyler tomonidan 1912-yilda tadbiiq etilib, dastlab E.Bleyler autizm deb asosiy xususiyati real olamdan uzoqlashib, o'z qobig'iga o'ralgan shizofreniya bilan og'rikan bemorlarning o'ziga xos fikrlash xususiyatlarini tushungan[17].

Xalqaro Kasalliklar Tasnifi(10-qayta ko'rib chiqilgan tasnifi) ga ko'ra autizm spektri "ruhiy kasalliklar" sinfining "psixologik rivojlanishning buzilishi" blokiga joylashtirilgan bo'lib, uning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi[18].

Autizm haqiqiy hayotdan ajralish, o'z qobig'iga o'ralish, tashqi stimullarga (ta'sirlovchilarga) javob reaksiyalarning yo'qligi, passivlik va atrof-muhit bilan munosabatlarda o'ta shikastlanishga moyillik sifatida qaraladi. Milliy korreksion pedagogikada L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, F.U.Qodirova, D.G.Nurmatova, N.M.Nizamovalar autizm spektri buzilishi, uning sabablari, turlari borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Chet el mamlakatlarida autizm spektri buzilishlarini o'rganish, tahlil qilish va tasniflash XIX asr oxiri XX asr boshlarida boshlanib, 1828-yilda fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar autizmni "Intellektual mutizm" deb ta'riflab, buzilgan intellektda nutqning rivojlanmaganligi yoki orqada qolishini ko'rsatib o'tadi[19].

Shvetsariya psixiatri E.Bleyler avvalroq fanga "shizofreniya" so'ng 1912-yilda "autizm" terminini kiritgan hamda ushbu ikki tashxisning differensial diagnostikasini amalga oshirishga harakat qildi[20].

1943-yilda Leo Kanner erta bolalik autizmini muloqot (nutq, motorika)ning buzilishi bilan kechadigan alohida holat bo'lib, u "shizofrenik spektr" deb atalmish holatlar qatoriga kiritadi. 50-yillarining boshlarida buzilishning psixogen kelib chiqishi haqida taxmin paydo bo'ldi, ammo bu tasdiqlanmadi. Hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, EBA (erta bolalik autizmi) o'ziga xos patologiyaning natijasidir. U markaziy asab tizimining yetishmovchiligiga asoslangan, turli kasalliklar (tug'ma qizilcha, tuberoz skleroz) jarayonida namoyon bo'ladi degan farazlar ham fanda mavjud[17].

Ko'pgina olimlar (S.S.Mnuxin 1949, D.N.Isaev, V.E.Kagan, K.S.Lebedinskiy 1990) EBA sindromi bolalarda asab tizimining miya yarim sharlari korteksidagi lokalizatsiya bilan o'zaro bog'liq perenatal davrida shikastlanishi deb hisoblashadi.

Autizm rivojlanishining asosiy sabablari fenilketonuriya, homiladorlik paytida zararli kimyoviy ta'sir, qizilcha, ichak kasalliklari bilan kasallanishini ko'rsatish mumkin. Zaif X-xromosomasi va autizm sindromi o'rtasida o'zaro bog'liqlik to'g'risida ham bir qator manbaalar mavjud. Erta tug'ruqdan keyingi davrda og'ir infeksiyalar bilan og'rishi autizmning sababi bo'lishi mumkin ekanligini ham bir qator olimlar e'tirof etishgan.

Hozirgi vaqtda chet elda L.Ving, K.Lord, M.Rutter, D.L. Robbinslar autizmning paydo bo'lishi va uning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmoqdalar. Bundan tashqari, o'qitish va diagnostika usullari takomillashtirilmoqda. Autizm muammosi xorijiy va milliy tadqiqotchilari tomonidan faol o'rganilmoqda.

E.R.Bayenskoy, M.M.Libling, O.S.Nikolskaya, V.V.Lebedinskiy tadqiqotlarida, autizmni maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasidagi muhim kasalliklar deb biladi. Olimlar V.M.Bashina va E.Courchesne autizmning kelib chiqishi sababi miya yarim korteksining buzilgan funktsiyalari bilan o'zaro bog'liq ravishda genetika va nevrologiyasini tahlil qildi[21].

Rus ilmiy adabiyotlar, autistik bolaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarning eng muhimlarini ajratib, autistik bola rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bolaning o'z ichki dunyosiga sho'ng'ib ketishi kabi autizmning yaqqol ko'rinishlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga stereotipik xatti-harakatlar, nutqning kechikishi va buzilishidagi o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi.

## I BOB. AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI


### 1.1. Autizm sindromli bolalarning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari

Bugungi kunda autizm sindromli bolalar soni sezilarli darajada oshganligi sababli, ushbu muammoga, xususan, autizmni korreksion tuzatish usullariga qiziqish bildiradigan mutaxassislar soni ham ko'payib bormoqda.

Autizm spektridagi buzilishlar tashxisining dolzarbligi Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2001-yildan alohida ajratib ko'rsatilib, shu yilning o'zida "Psixik salomatlik yili" deb e'lon qilingan hamda 2005-yil Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2-aprel "Xalqaro autizm muammosi to'g'risida axborotlarni tarqatish kuni" deb e'lon qilinib, 2008-yildan buyon har yili nishonlanib keladi[19].

Bolalarda autizm spektridagi buzilishni o'rganish ta'limotining rivojlanishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Yolg'izlik va o'z qobig'iga o'ralishga moyil bo'lgan bolalar haqida birinchi eslatmalar XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi (I bosqich). Autizm muammosining rivojlanishidagi kannergacha bo'lgan davr XX asrning 20-40-yillarini qamrab oladi va bu davrda bolalarda autizmi tushunchasi shakllangan (II bosqich)[22].

«Autismus» terminini shveysariyalik psixiatr Eygen Bleyler tomonidan 1912-yili fanga kiritilgan. Ushbu tushuncha yunon tilidan olingan bo'lib αὐτός — "men", demakdir, ya'ni bemorning o'z qobig'iga o'ralishi va atrofdagilarga e'tibor bermasligi nazarda tutiladi. Muallif autizmni ichki hayot, shizofreniyada orzular va hayollarning o'ziga xos dunyosi mavjudligi bilan haqiqatdan ajralish deb atadi[17]. Keyinchalik u maniakal depressiv psixoz (MDP), shuningdek, jazava va affektiv kasalliklarda shizoid psixopatiya kabi kasalliklarning klinik ko'rinishida autizm mavjudligini tan oldi. Muallifning fikriga ko'ra, autizm affektiv komplekslarga, shu bilan birga fikrlashning buzilishiga asoslangan.



1.1.1-rasm. Eygen Bleyler

Dastlab Eygen Bleyler autizm deb asosiy xususiyati real olamdan uzoqlashib, o'z qobig'iga o'ralgan shizofreniya bilan og'rikan bemorlarning o'ziga xos fikrlash xususiyatlarini tushungan.

E.Bleyler ta'rifida autizm fenomenologik xususiyat sifatida juda murakkab toifani ifodalab, u bitta simptomga emas, balki, shizofreniya kasalligida kuzatiluvchi alomatlar yig'indisi bilan belgilanadi. "Autizm" tushunchasi tezda psixiatriya amaliyotiga kirdi va nafaqat shizofreniyaga, balki boshqa patologik holatlarga ham nisbatan keng qo'llanilishni boshladi.

Mazkur tushuncha keng ma'noda 1938-yili venalik Gans Asperger tomonidan "Ruhiiy noodatliy bola" sarlavhali ilmiy maqolasida tushuntirib beriladi. 1944-yili Asperger kasallikni "Bola yoshida autistik psixopatiya" maqolasida tahlil etadi va keyinchalik kasallik Asperger sindromi nomini oladi. Ushbu kasallikni tadqiq etgan shifokor Leo Kanner Jon Xopkins gospitalida faoliyat yuritir ekan, 11 nafar autizm bilan kasallangan bolalarni kuzatadi va ingliz tiliga «autizm» terminini kiritadi. 1943-yilda Leo Kanner autist bolalarni psixiatriya amaliyotida kuzatgan va unga erta bolalik autizmi (EBA) ta'rif berib, autizm sindromini tasniflashga harakat qilgan. U asosiy nuqson sifatida bolalarning tug'ilishidan boshlab boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish hamda odamlar va tashqi vaziyatga to'g'ri munosabatda bo'lish mumkin emasligi deb hisoblagan[19]. Dastlab Leo Kanner ushbu buzilish shizofreniyaning bolalik shakliga tegishli ekanligini ta'kidlab, keyinchalik u ushbu nuqson alohida xususiyatga ega degan xulosaga keldi. Leo Kanner autizmi

sabablarini affektiv soha va organik buzilishlarni ko'rib chiqdi[23]. Hanuzgacha etiologiya, patogenez, klinika, davolash va erta bolalik autizmining prognozi haqidagi munozaralar hali ham to'xtamagan.

Afsuski, bugungi kunga qadar autizmning kelib chiqish sabablari to'liq o'rganilmagan. Zero, aksariyat holatlarda sog'lom tug'ilgan bolalarda ham vaqt o'tishi bilan ushbu kasallik namoyon bo'ladi. Bu esa ota-onalarni jiddiy tashvishga soladi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bolalar autizmiga bir qator ta'riflari keltirilgan (J.M.Itar, E. Bleyler, L.Kanner, K.S.Lebedinskaya, H.Asperger, I.I.Mamaychuk, O.S.Nikolskaya, B.P.Puzanov, Ving, Vilyams). Shu bilan birga simptomlarning soni va namoyon bo'lishiga ko'ra Xalqaro Kasalliklar Tasnifi – 10 (MKБ-10) bo'yicha autizm bolalik autizmi, atipik autizm, Asperger sindromi va Retta sindromi, aqliy zaiflik va stereotipik harakatlar bilan birlashgan giperaktiv buzilishlar, bolalik davridagi parchalanish buzilishlari kabi turlarga bo'linadi[17]. Bizning mamlakatimizda kasalliklarni tashxislash va shifrlashda XKT-10 (MKБ-10) dan foydalaniladi.

Yurtimizda autizm spektridagi buzilish tashxisi mavjudligi 2010-yilda rasmiy ravishda qayd etildi. Bunga ilk marotaba 10 yashar o'g'li Muxammadali autizm kasalligiga chalingan Farxod Ortiqboev erishdi. Ko'plab shifokorlarning muolaja va tavsiyasi, bolaning o'zgarib qolganligi, u haqiqatan ham kasal ekanligi borasidagi tashxislardan so'ng Muhammadaliga autizm tashxisi qo'yildi.

2014-yilda "Sen yolg'iz emassan" Respublika jamoat bolalar jamg'armasi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan shu yildan boshlab "Autizm: innovatsion yondashuv va harakatlar strategiyasi" deb nomlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya o'tkazilib, unda shifokorlar e'tiborini autizm kasalligi muammolariga qaratildi.

Xalqaro autizm muammosi haqida xabar berish kuni autizm kasalligi to'g'risidagi turli xil xato fikr-mulohazalarga chek qo'yishi bilan birga indamas, doimo g'amginligi bois "yomg'ir bolalari" nomini olgan autist bolalar muammolariga jamoatchilik e'tiborini qaratish, ota-onalar, shifokorlar, bevosita kasallik tadqiqoti bilan shug'ullanuvchi turli xil mutaxassislarining harakatlarini birlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga jamiyatda alohida ehtiyojli shaxslarga nisbatan insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirib, ularni

ham inson, shaxs sifatida qadrlanishiga turtki bo'lmog'ida. Zero, bugungi kunda qabul qilinayotgan barcha qonun, farmon va boshqa huquqiy hujjatlar negizida inson qandirini ulug'lashga qaratilgan eng oliy maqsad ko'zlanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunida nogironli bo'lgan shaxslarning huquqlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan[5].

Bu haqda mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham "Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz.

Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz"– deb ta'kidlagan[15].

2015-yil 2-aprel sanasida respublika bolalarni ijtimoiy moslash-tirish markazida (RTSAD) autizm spektri, uni davolash usullari, shuningdek, bolalarda erta tashxis qo'yish bo'yicha II xalqaro konferentsiya bo'lib o'tgan. Konferentsiya autizm spektrli bolalarga to'g'ri yondoshish, tashxislash kabi masalalarda tajriba orttirish va ushbu sohadagi so'nggi jahon tadqiqotlari bilan tanishish uchun zarur hisoblangan. Ushbu konferensiyada 200 dan ortiq mutaxassislar, jumladan, AQSh, Fransiya, Avstriya, Isroil, Gretsiya, Xitoydan kelgan autizmni o'rganish bo'yicha yetakchi ekspertlar hamda autizimli bolalarning ota-onalari o'z tajribalarini taqdim etishgan.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunga qadar autizm statistikasi ushbu kasallik bolalarda keng tarqalib borayotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda respublikamizda bolalarda autizm tashxisining tarqalishi va murakkabligini ro'yhatga ololmaymiz, sababi ko'pincha bu kasallik to'g'ri tashxislanmagan va ruhiy kasallik deb hisoblanib faqat psixiatriyani o'rganish sohasi bo'lib qolmoqda.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erta tashxis qo'yish ASB bolalarning ta'lim-tarbiya olishi va ijtimoiy ko'nikmalarini egallashini yaxshilaydi. Kompleks terapiyani olgandan so'ng, ko'plab bolalar to'liq hayot kechirishda davom etadilar. Mutaxassislarning

erta aralashuvi autizm spektrli bolalarga davolanish va ijtimoiy moslashishda yanada samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Shu sababli, mutaxassislarning erta aralashuvi muhim bo'lgan bolalarda tashxisni aniqlash uchun tekshiruv usullarini ishlab chiqishda xalqaro tajribani o'rganishlari va qo'llashlari juda muhimdir.

Respublikamizda autizm bilan bog'liq muammolardan biri bu kasallik haqida jamoatchilikning xabardor emasligi bo'lib, bu uning autizmni aniqlash uchun katta to'siq yaratadi. Autizm spektrining buzilishiga ega bo'lgan farzandlari bor ko'plab oilalar, ba'zida mavjud ijtimoiy stereotiplar tufayli bolalariga to'g'ri tashxis qo'yilishidan qochishadi.

Rossiya Federatsiyasi Moskva shahrida 2019-yil 8-10-aprel kunlari an'anaviy tarzda yetti yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan "Autizm. Muammolar va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu konferentsiya autizm sohasidagi eng dolzarb yo'nalishlarni yuzma-yuz muhokama qilish uchun butun dunyo bo'ylab shifokorlar, o'qituvchilar, psixologlar, sog'liqni saqlash va ta'lim ishtirokchilari, tegishli mutaxassislarni to'pladi.

2019-yil 22-24-aprel kunlari "Autizm spektrining buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar bilan ishlashda innovatsiyalar: DIRFloortime tadqiqotlari va amaliyoti" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tgan va konferensiyaning asosiy maqsadi - DIR Floortime modelidan foydalangan holda ASB bilan kasallangan bolalarga yordam berish tajribasini translyatsiya qilish hisoblangan[24].

Hozirgi kunda dunyoda 6,5 milliondan ortiq autist mavjud bo'lib, so'nggi paytlarda kasallikning o'sishi keskin oshdi. Shu bilan birga ushbu rivojlanish kamchiligining o'sish tendensiyasi mutaxassislarni havotirga soladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, autizm sindromli bolalar 2000-yilda 10 000 boladan 4-26 nafarida, 2005-yilda 250-300 nafar bolaning birida, 2008-yilda har 150 nafar bolaning birida uchragan. Hozirgi vaqtda esa AQSHning kasalliklarni nazorat qilish markazi 2012-yildan to 2019-yilga qadar avval har 88 nafar,[25] so'ng har 59 nafar bolaga 1ta autizm holati, 2022-yilda esa har 44 nafar bolaning birida uchrashini ko'rsatmoqda[16]. JSST ma'lumotlariga ko'ra, autizimli bolalar soni har yili 13 % ko'paymoqda hamda o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan 4 baravar ko'proq uchraydi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlar orqali



ushbu rivojlanish buzilishining o'sish chastotasini kuzatishimiz mumkin.

Autizm real hayotdan ajralish, o'z qobig'iga o'ralish, tashqi stimullarga (ta'sirlovchilarga) reaksiyalarning yo'qligi, passivlik va atrof-muhit bilan munosabatlarda o'ta shikastlanishga moyillik sifatida qaraladi.

E.R.Baenskaya, O.S.Nikolskaya, V.V.Lebedinskayalarning fikriga ko'ra, autizm spektri kamchiligidagi asosiy nuqson sifatida bolaning atrof olam bilan aloqa qilish jarayoni buzilishi kuzatiladi[26].

Turli mamlakatlar mutaxassislarining ilmiy-amaliy tajribalarini to'plab, bolalik autizmida muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik xarakterdagi muammo ekanligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu munosabat bilan aynan bolalik autizmi sindromli bolalarda muloqot jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan turli yo'nalishlar oxirgi yillarda chet el olimlarining tadqiqot ishlarida dolzarb mavzu sifatida ko'rilmogda (E.G.Karr, P.Hant, T.Layton, E.Schopler, L.R.Uotson va boshqalar).

Korreksion pedagogika va psixologiyada autizm spektrida buzilishlari bor bolalarning rivojlanishidagi kamchilik hamda o'ziga xos tomonlari keng tavsiflanib, bunday bolalar nutqi va muloqot jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari alohida e'tiborga molikdir. Biroq shu bilan birga, muloqot ko'nikmalarini shakllanish darajasini baholash uchun tashxis metodlari va usullari yetishmaydi. Mavzuga oid o'rganilgan adabiyotlarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga emas, balki umuman nutqni rivojlantirishga qaratilgan alohida metodik usullar tasvirlangan (V.M.Bashina, O.S.Nikolskaya, L.G.Nuriyeva, S.A.Morozov, S.S.Morozova, T.I.Morozova).

Autizmning asosiy simptomlari sifatida bola atrofdegilar bilan visual kontakt, mimika, imo-ishoralar, xatti-harakatlarning stereotiplari bilan munosabatga kirisha olmasligi, ya'ni tug'ma qobiliyatsizlikda namoyon bo'ladi. Autizm sindromli bolalar doimiy takrorlanuvchi xatti-harakatlar(streotiplar)ga moyillik, turli xil obyektlarga haddan tashqari, noodatiy ta'sir qilish, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga qarshilik kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega[27]. Autist bolalar turli xil narsa, predmet va voqea hodisalarga o'ziga xos tarzda javob berishadi. Masalan, noqulay muhitga ular g'azab, jazava bilan javob reaksiyasini ko'rsatishadi. Bunday

bolalarda intellektual rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lmagan holda nutqni rivojlantirishda kechikish mavjuddir. Autizm juda erta namoyon bo'ladi, asosan, bu hayotning o'ttizinchi oyiga qadar sodir bo'ladi[28].

Autizm simptomlarini 3-5 yoshda aniq kuzatiladi[19] va bunday simptomlar qo'rquv, tajovuzkorlik, negativizm bilan belgilanadi. Keyinchalik, intellektual va shaxsiy rivojlanishdagi buzilishlar paydo bo'ladi.

Autizm buzilish sifatida turli xil ruhiy kasalliklarda ham qayd etiladi. Ba'zi hollarda u juda erta aniqlanadi (bolaning hayotining birinchi oylarida va kunlarida), klinik ko'rinishda asosiy o'rinni egallaydi. Shu bilan barcha bilish jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holda, erta bolalik autizm sindromi (EBA) tashxisi kuzatilib, bu aqliy rivojlanishning buzilishning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Autizm sindromida ayrim bilish jarayonlari juda sekin va aksincha ayrim bilish jarayonlari juda jadal rivojlanadi. Ko'pincha gnosisning rivojlanishi praksisdan oldinda (odatda-aksincha) kechadi. Ba'zan yoshga xos bo'lmagan holatda lug'at boyligi keng bo'lib, kommunikativ xususiyatlari umuman rivojlanmagan bo'lishi mumkin[29].



1.1.1-sxema. Lorn Ving "Autizm sindromida buzilishlar triadasi"

Ko'pgina hollarda EBA tashxisini qo'yish uchun talab qilinadigan barcha klinik xususiyatlar mavjud bo'lmaydi. Autizm spektri buzilishi uchun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan qabul qilingan mezonlar sifatida autizmda buzilishlar uchligi : ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning yetishmasligi; nutq va muloqot ko'nikmasining rivojlanmaganligi; qiziqishlarning cheklanganligi va streotipik xatti-harakatlarning mavjudligini ajratib ko'rsatadi.

1979-yilda Lorn Ving hamkasbi Judit Gould bilan birgalikda autizm sindromli 173 bolani o'rganish natijalarini e'lon qildi (ko'pincha "Camberwell's Study" deb nomlanadi) unda autizmning asosiy alomatlarini tizimlashtirishga birinchi urinishlar qilingan. Mualliflar autizmdagi buzilishlar triadasini aniqladilar, keyinchalik uni "Ving Gould triadasi" deb atashdi. L.Ving ta'kidlashicha, buzilishlar triadasi har doim takrorlanadigan stereotipik harakatlar bilan birga kelib, ular oddiy va murakkab shakllarga ega bo'lishi mumkin. Rivojlanish darajasi biroz yuqoriroq bolalar odatda murakkabroq muntazam harakatlarni amalga oshiradilar, shu jumladan ma'lum qoidalarga rioya qilishni talab qilish, kundalik harakatlarning muayyan marosimlariga rioya qilish; doimiy ravishda bir xil savollarni berish va standart javoblarni talab qilish kuzatiladi.

Autizm-bu polietilogik kasallik bo'lib, autizmning birlamchi etiologiyasi noma'lum bo'lib qolmoqda, bunda biz faqat irsiyatning roli va atrof-muhit omillarining ta'sirini taxmin qilishimiz mumkin.

Ikkilamchi sabab sifatida, autizmga prenatal va erta tug'ruqdan keyingi davrda sinapslarning me'yorda rivojlanishini buzuvchi turli omillar sabab bo'lishi mumkinligi (viruslar, radiatsiya, travma, surunkali intrauterin gipoksiya va o'tkir asfiksiya, intoksikatsiya) ko'zda tutiladi[28]. Autizm xavfi, shuningdek, homila paytida otaning yoshining kattaligi bilan ortadi. Genetik va xromosoma sindromlari autizmning etiologik omillari tarkibida 25-50% ni tashkil qiladi, autizm qanchalik og'ir bo'lsa, u genetik xususiyatga ega bo'ladi. Xususan, autizm zaif X xromosoma sindromi (FXS, Fragile X Syndrome) bilan og'rigan bemorlarning 25-47 foizida, Daun sindromi bilan og'rigan bemorlarning 5-10 foizida, tuberoz sklerozli bemorlarning 16-48 foizida kuzatiladi. Shuningdek, autizm Angelman, Jubert, Koen sindromlari, epileptik ensefalopatiyalar, ayniqsa G'arb sindromi uchun xosdir. 15-20% hollarda tekshirilganda, dizembriogenez

stigmasi aniqlanishi mumkin, bu homila rivojlanishning buzilishini va autizmning sindromli xususiyatini ko'rsatadi. Biroq, ko'pchilik bolalarda fenotip me'yorda bo'ladi[30].

Asosiy patogenetik gipoteza autizm spektrdagi kamchiliklarni ijtimoiy, kommunikativ, kognitiv va sensomotor buzilishlarni keltirib chiqaradigan funktsional aloqalar faolligining pasayishi yoki ko'payishi va ularning neyronal sinxronizatsiyasi bilan izohlaydi.

Autizm-poligenik xususiyatga ega bo'lgan holat sifatida qaralib, asosiy mutatsiyalar sinaptik bog'lanishlar, neurotransmitterlar, hujayra migratsiyasi va differentsiatsiyasini kodlovchi genlarda aniqlangan[31].

Autizmning sabablari miya yarim korteksidagi sinaptik aloqalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi genlar bilan bog'liq. Aksariyat olimlar ko'p hollarda EBA irsiy xususiyatga ega degan fikrga qo'shiladilar. Autizmning rivojlanishi bitta genga emas, balki ko'p omilli mexanizm deb nomlanuvchi genlar guruhiga bog'liq[32].

Genlar kompleksi patologiyaning o'zi emas, balki uning rivojlanishiga moyillik quyidagilar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi: ekzogen (travma, infeksiya, intoksikatsiya, psixotravma va boshqalar);

endogen (yoshga bog'liq inqiroz, konstitutsional o'ziga xos xususiyatlar) bo'lishi mumkin.

Markaziy asab tizimining organik shikastlanishi autizm etilologiyasi sifatida 50 yildan ziyod vaqt mobaynida ko'rib chiqildi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab bolalarda EBA tashxisi markaziy asab tizimining organik shikastlanish belgilarini ko'rsatadi. Biroq uning sababi va turini ko'rsatish qiyinchilik tug'diradi.

Tug'ma hissiy zaiflik, ko'ngilsizliklarga haddan tashqari bardoshsizlik, tashvishlanishning past chegarasi katta ahamiyatga ega. Bunday holda, har qanday salbiy tashqi ta'sir ya'ni ona bilan hissiy aloqaning yetarli emasligi (depressiya, og'ir travmatik voqealarni boshdan o'tkazganligi), bola tashqi olamni xavfli, jabr yetkazuvchi sifatida qabul qilib, o'z qobig'iga o'ralib oladi. O'z qobig'ida bola o'zini xavfsizroq his qiladi. Natijada, u tug'ilishdan boshlab to'liq himoyaga asoslangan shaxsiyatning ma'lum bir tuzilishini shakllantiradi. Bu o'z navbatida, butun aqliy rivojlanish (psixologik, hissiy, intellektual) tendensiyasini buzadi.

XX asr 50-yillarning boshlarida autizmning psixogen kelib chiqishi haqida taxmin paydo bo'ldi, ammo bu tasdiqlanmadi[17]. Hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, EBA o'ziga xos patologiyaning natijasidir.

U markaziy asab tizimining yetishmovchiligiga asoslangan, turli kasalliklar (tug'ma qizilcha, tuberoz skleroz) jarayonida namoyon bo'ladi.

S.S.Mnuxin (1949), D.N.Isaev, V.E.Kagan, K.S.Lebedinskiy (1990) lar EBA sindromi bolalarda asab tizimining gemisferalari korteksidagi lokalizatsiya bilan o'zaro bog'liq bo'lgan perenatal davrida shikastlanishi deb hisoblashadi. Olimlar V.M.Bashina va E.Courchesne autizmning kelib chiqishi sababi miya yarim korteksining buzilgan funksiyalari bilan o'zaro bog'liq ravishda irsiyatini va nevrologiyasini tahlil qildi.

Psixoanalitik yondashuv doirasida chet el tadqiqotlari erta bolalik autizmning shakllanishiga alohida e'tiborni bolaning onasi bilan hissiy aloqaning buzilishi, sovuqqonlik, onaning haddan ziyod bolaga talabchanligi, bosim o'tkazishi tufayli kelib chiqadigan, bolaning hissiy sohasi va faoliyatiga ta'sir qiladigan surunkali psixotravmatik vaziyatga (B. Bettelxaym) qaratiladi. Ammo hozirga kelib ushbu fikr ham o'z tasdig'ini topmadi.

Autizm rivojlanishining asosiy sabablari fenilketonuriya, homiladorlik paytida kimyoviy ta'sir, qizilcha, ichak kasalliklari bilan kasallanishini ko'rsatish mumkin. Zaif X-xromosomasi va autizm sindromi o'rtasida o'zaro bog'liqlik to'g'risida ham bir qator manbaalar mavjud. Shu bilan birga tug'ruqdan keyingi ilk davrda og'ir infeksiyalar bilan kasallanishi ham autizmning sababi bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda chet elda L.Ving, K.Lord, M.Rutter, D.L.Robbinslar autizmning paydo bo'lishi va uning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmoqdalar. Bundan tashqari, o'qitish va diagnostika usullari takomillashtirilmoqda. Autizm muammosi xorijiy va milliy tadqiqotchilari tomonidan faol o'rganilmoqda. E.R.Baenskaya, M.M.Libling, O.S.Nikolskaya, V.V.Lebedinskaya tadqiqotlarida, autizmni maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasidagi muhim kasalliklar deb biladi.

Rus ilmiy adabiyotlar, autistik bolaning rivojlanishiga ta'sir

qiluvchi omillarning eng muhimlarini ajratib, autist bola rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bolaning o'z ichki dunyosiga sho'ng'ib ketishi kabi autizmning yaqqol ko'rinishlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga stereotipik xatti-harakatlar, nutqning kechikishi va buzilishidagi o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi[28]. Shu kabi alomatlar bolalar hayotining ikkinchi va uchinchi yillarida kuzatish mumkin. Autizmning namoyon bo'lishining klinik ko'rinishi juda murakkabdir. Tadqiqotchilar erta autizmning sindrom sabablarining ko'pligiga ishora qilib, bularga quyidagilar kiradi:

qoldiq-organik omilning ta'siri (homiladorlik davridagi patologiyalar, tug'ish, miya shikastlanishi patologiyasining oqibatlari va infeksiyalar);

miyaning tug'ma disfunktsiyasining natijasi;

axborotni qayta ishlash uchun zarur bo'lgan neyron tuzilmalarining rivojlanmaganligi natijasi sifatida[30].

Xalqaro Kasalliklar Tasnifi 10-qayta ko'rib chiqilgan tasnifiga ko'ra autizm spektr "ruhiy kasalliklar" sinfining "psixik rivojlanishning buzilishi" blokiga joylashtirilgan[33].

F84.0	• Erta bolalik autizmi
F84.1	• Atipik autizm
F84.2	• Retta sindromi
F84.3	• Bolalik davridagi parchalanish buzilishi
F84.4	• Aqliy zaiflik va stereotipik harakatlar bilan birlashtirilgan giperaktiv buzilish
F84.5	• Asperger Sindromi
F84.8	• Rivojlanishning boshqa birlamchi kasalliklari
F84.9	• Rivojlanishning umumiy kamchiliklari, aniqlanmagani

1.1.2-sxema. XKT 10-qayta ko'rib chiqilgani bo'yicha autizm sindromi turlari.

**Erta bolalik autizmi (EBA yoki Kanner sindromi)**-bunda eng aniq bo'lgan umumiy rivojlanish buzilishlari 3 yoshgacha bo'lgan davrda kuzatiladi. Bolalarda ijtimoiy o'zaro munosabatlar buziladi va cheklangan, takrorlanadigan(stereotip) xatti-harakatlar qayd etiladi. Ijtimoiy o'zaro ta'sirning uchta sohasi o'zgargan bo'ladi. Bu ko'proq qizlarga qaraganda o'g'il bolalarda kuzatiladi.

Ilk davrlarda rivojlanish me'yorda kechmaydi. Odatda bu buzilish 3 yoshgacha aniqlanadi. Bolalarda ijtimoiy o'zaro munosabatlarga kirishish shakllanmagan bo'ladi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar boshqalarni yetarlicha anglamaydilar, boshqalarning his-tuyg'ulariga to'g'ri javob bera olmaydilar. Ular ijtimoiy belgilardan yetarli darajada foydalanmaydilar. Bunday bolalarda ijtimoiylashuv, hissiyotlilik, xushmuomalalik o'zlarining xatti-harakatlarida juda kamdan kam birlashadi. Ushbu turdagi nuqsonlar har doim qiziqishlarning, faollikning cheklanganligi, takrorlanuvchi stereotipik xatti-harakatlar bilan ajralib turadi.

Bunday bolalarning xatti-harakatlari aniq bir maqsadga ega bo'lmagan doimiy bir xil xatti-harakatlar tartibi bilan tavsiflanadi. Bola uni o'rab turgan tartib yoki tafsilotlarning o'zgarishiga qarshilik ko'rsatishi mumkin. Ushbu tahlil belgilaridan tashqari, bolalarda qo'rquv (fobiya) namoyon bo'ladi, uxlash va ovqatlanishda bezovtalik, g'azablanish va tajovuzkorlik kuzatiladi. Autizm uchun alohida xususiyat shundan iboratki, undagi nuqsonlar bola ulg'aygani sari o'zgarib boradi va nuqsonlar bola ulg'ayishi davrida ham saqlanib qoladi. Ushbu sindrom yoshga bog'liq rivojlanishning barcha davrlarida kuzatiladi. Autizm aqliy rivojlanishning turli darajalari bilan ajralib turadi, lekin asosan aqliy qo'loqlik aniq namoyon bo'ladi.

**Atipik autizm** aqliy zaif bolalarda hamda nutqida retseptivlikning qo'loqligi yoki jiddiy rivojlanish buzilishi mavjud bolalarda juda keng tarqalgan. Autizmning ushbu turi maktabgacha yoshdagi bolalarda diagnostika mezonlari yo'qligi bilan ajralib turadi, bu uch yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli. Bu birinchi marta uch yildan keyin namoyon bo'ladi.

Bolalarda tashxis qo'yish uchun psixik rivojlanishining uch sohasidan bir yoki ikkita sohasida yetarlicha aniq buzilishlar mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Bu ijtimoiy sohalardagi buzilishlar

(o'zaro ta'sir, umumiy cheklanganlik, stereotipik xatti-harakatlar)da yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu autizm turi ko'pincha chuqur aqli zaif bolalarda tashxis qilinadi. Tashxislashda asosiy mezon umumiy autizmdan atipik autizmning sezilarli farqlarini aniqlash kerak bo'ladi.

**Retta Sindromi.** Bu kasallikka ilk bor avstriyalik nevrolog Andreas Rett tomonidan 1966-yilda ta'rif berilgan bo'lib, ushbu kasallik irsiy xarakterga ega. Bu kasallik faqat qizlarda uchraydi[17]. Bir yoki bir yarim yilgacha bolalar me'yorda rivojlanadi, ammo keyin ular nutqiy qobiliyatlari, harakat ko'nikmalari yo'qoladi hamda predmetli-rolli ko'nikmalarni unitishadi.

Ular stereotipik va bir xil tarzda qo'llarini harakatga keltiradilar, qayiltiradilar. Qizlarda nutqi qoloq, ba'zida nutqi yo'qolib, mutizmga uchraydi. Qizlar ichlarida kulgini siqib chiqarganday namoyon etadi hamda ularning xatti-harakatlari impulsiv bo'ladi[34]. Kasallik paytida ko'pincha to'rtta bosqich aniqlanadi:

**1. Birinchi bosqich-turg'unlik.** Bu davr bolalarning rivojlanishidagi 4 oydan 2,5 yoshigacha davom etadi. Birinchi kasallik belgilariga bolaning psixomotor rivojlanishining sekinlashishi va boshning o'sish sur'atining pasayishi, qo'l harakatning yo'qolishi kiradi. Bolalarning yarmidan ko'pi nafas olish anomaliyalariga ega, ayrim hollarda sudurogi tutishlar ham kuzatiladi. Muhim alomatlardan biri boshqalar bilan aloqani yo'qolishi hisoblanadi.

**2. Buning ortidan neyro-aqliy rivojlanish regressiyasi davri keladi,** bu odatda 1-3 yoshdan boshlanib, quyidagilar bilan birga keladi: xavotir hurujlari, "chidab bo'lmay qichqirib", uyquning buzilishlari. Bir necha hafta-oylar davomida bola ilgari egallagan ko'nikmalar, xususan, maqsadli qo'llar harakatlari va nutqi yo'qoladi.

**3. Uchinchi bosqich, maktabgacha va erta maktab yoshi davrini qamrab oladi.** Bu vaqtda bolalarning ahvolidan nisbatan barqarorlik kuzatilib, birinchi galdan chuqur aqliy zaiflik yuzaga keladi, sudurogi tutishlar va shuningdek, turli xil harakat buzilishlari namoyon bo'ladi. Xavotir hurujlari o'tadi, uyqu yaxshilanadi, bola bilan hissiy aloqa o'rnatish mumkin bo'ladi.

**4. Hayotning birinchi o'n yilligining oxiriga kelib to'rtinchi bosqich boshlanadi.**

Bu bosqichda harakat buzilishlari rivojlanadi. Shu bilan birga,

sudurogi tutishlar kamayadi. Bunday holatda bemorlar o'nlab yillar davomida qolishlari mumkin.


**Bolalik davridagi boshqa parchalanish kasalliklari.** Kasallik asta-sekin o'sib boradi va demensiya rivojlanadi. Bolalarda ijtimoiylashuv va aloqa o'ziga xos bo'lib, aqliy kamchiliklardan ko'ra ko'proq kuzatiladi. Ushbu guruhga erta rivojlanib o'sib boruvchi, aqliy rivojlanishning to'xtashi va regressiyasi, shuningdek, ijtimoiy, kommunikativ va xulq-atvor faoliyati bilan bog'liq kasalliklar kiradi. Odatda, bu stereotipik harakatlar va autistik yetakchilik bilan birga keladi. Bola me'yorda rivojlangan va miya yarim sharlarining organik jarohatlanishi kuzatilmaganligi sababli, tashxislashda qiyinchiliklarga duch kelinadi..

**Aqliy zaiflik va stereotipik harakatlar bilan birga uchraydigan giperaktiv buzilishlar.** Belgilar nomi bilan tavsiflanuvchi kasallik turidir. Murakkab alomatlar bilan birga aniq, chuqur va og'ir darajadagi aqli zaiflik kuzatiladi.

**Asperger Sindromi.** U birinchi marta *1944-yilda Vena psixiatri G.Asperger* tomonidan ta'riflangan. U bu nuqsonni shaxsiyatning buzilishi deb bilgan va autistik psixopatiya deb belgilagan. Hozirgi vaqtga qadar kelib chiqishi aniqlanmagan. Asperger sindromi yengil autizm buzilishining bir turi hisoblanadi.

Funktsiya qobiliyati saqlanib qolganligi bilan boshqa turlardan farqlanadi. Ushbu sindrom klinik jihatdan nisbatan farq qiladi. Bolalarda me'yoriy aqliy qobiliyat, kam rivojlangan ijtimoiy qobiliyatlar kuzatiladi. Ular ijtimoiy o'zaro ta'sirdagi sifat buzilishlari va xatti-harakatlardagi cheklovlar, takrorlanishlar, stereotiplar, ayniqsa qiziqish va faoliyat uchun xarakterlidir. Bola rivojlanganligi sari, shizoid tipga yaqin shaxs shakllanib boradi. Shunga qaramay, Asperger sindromida nutq va intellektual rivojlanishda kechikish bo'lmaydi. Asosan, bolalarning aksariyati normal intellektga ega. Harakatlarning rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga ega: ular beso'noqay yurishadi, harakatlar notekis, stereotipik bo'ladi. O'g'il bolalarda bu kasallik qizlarga nisbatan ko'proq kuzatiladi. Ular egosentriklik, tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar past ehtiyoj bilan ajralib turadi. Muloqotda bolalar sodda, aldashni bilishmaydi yoki buni o'ziga xos tarzda bayon etib, ko'pincha o'zlariga zarar yetkazishadi. Ular uchun so'zlar va shikoyatlarga nisbatan

Exolalik autist bolada nutq muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ishlatilishi kerak. Buning uchun bolaga nutq so'zlash namunalari namoyish qilish va ularni exolaliya bilan takrorlashga undash kerak.

Masalan, autistik bola bilan muloqot qilishda biz tez-tez u o'zaro aloqada bo'lgan vaziyatga duch kelamiz, lekin suhbatdoshning e'tiborini qanday jalb qilishni, undan yordam so'rashni, sevimli o'yinini o'ynashni va hokazolarni bilmaydi. Autistik bola ba'zi hollarda "kel, o'ynaymiz!" ko'rsatmasiga, ya'ni o'zaro ta'sirga tayyor emas va rad etishni yetarli darajada ifoda eta olmaydi, keyin u "istamayman", "yo'q" deyish o'rniga qichqirishni boshlaydi yoki hoto'g'ri xatti-harakatlarning boshqa shakllarini namoyish etadi.

Bunday vaziyatlarda u ogʻzaki koʻrsatmalar shaklida ham yordamga muhtoj.

Korreksion ishlarining dastlabki bosqichlarida bolalar odatda kattalarning soʻzlarini mexanik, yodlangan holda takrorlaydilar.

Muayyan vaziyatlarda bir xil exolalik (takrorlanuvchi) bayonotlarni qayta-qayta takrorlash bolaga aytilganlarning maʼnosini tushunishga va bu soʻzlarni mustaqil muloqot qilish uchun, koʻrsatmalarsiz ishlatishga imkon beradi.

Yana bir muhim jihat kommunikativ bayonotlarni mustahkamlashdir. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, har qanday, hatto juda zaiflarini kuchaytirish,

kommunikativ urinishlar bolada motivatsiyaning kuchayishiga olib keladi (Koegel, Oʻdell, Dunlap, 1988), bu kommunikativ koʻnikmalarining sifatini oshirishga yordam beradi. Mustahkamlash ikki xil koʻrinishda boʻlishi mumkin: sunʼiy va tabiiy [39].

Toʻgʻri javobni ragʻbatlantirish uchun M&M konfetlari, lolipoplar, mayizlar, chipslar va boshqalardan foydalanish sunʼiy mustahkamlash sifatida xizmat qiladi. Masalan, oʻqituvchi bolaga obyekt tasviri tushirilgan rasmni koʻrsatadi hamda undan soʻraydi: “bu nima?”. Bola javob beradi: “bu shkaF” pedagog – “toʻgʻri”, deb ragʻbat sifatida bolaga konfet beradi. Ushbu misol sunʼiy mustahkamlash (bu holda konfet) muloqot bilan bevosita bogʻliq emasligini, amaliy faoliyatga kiritilmaganligini aniq koʻrsatib turibdi. Bunday mustahkamlash koʻpincha autism sindromli bolalarning kommunikativ koʻnikmalarini shakllantirish va mustahkamlash uchun tuzilgan mashqlar va oʻquv topshiriqlarini bajarishda foydalaniladi. Chet ellik tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan koʻplab xulq-atvor dasturlari ushbu turdagi mustahkamlashdan foydalanishga asoslangan.

Tabiiy mustahkamlash, aksincha, oʻzaro taʼsir mazmuniga bevosita bogʻliq boʻlib, bola va kattalarning birgalikdagi faoliyatiga kiritilgan. Masalan, Loto kartalari yordamida oʻyin: oʻqituvchi kartani koʻrsatib, “bu nima?” deb soʻraydi, agar bola toʻgʻri javob bersa, u holda ragʻbat sifatida pedagog unga kartani beradi, uni bola tegishli joyga qoʻyadi. Bunday holda, amaliy faoliyatga kiritilgan kartaning oʻzi mustahkamlovchi vazifasini bajaradi. Zamonaviy tadqiqotchilar taʼkidlashlaricha, “tabiiy mustahkamlash” dan foydalanish muloqot

koʻnikmalarini mustahkamlashga yaxshi yordam beradi (Koegel, 1995).

Muhim shartlardan biri - bu tuzatish ishlari tizimida kundalik, tabiiy vaziyatlardan foydalanish. Autizm sindromli bolalarda muloqot koʻnikmalarini shakllantirish, oʻquv jarayoni qatʼiy tuzilgan mashqlar va topshiriqlarni bajarishga asoslangan boʻlsa va faqat terapevtik mashgʻulotlar doirasida amalga oshirilsa, rivojlanayotgan koʻnikmalar funktsional emas, har kuni yuzaga keladigan ijtimoiy vaziyatlardan ajralib turadi va bolalar tomonidan kundalik hayotda ishlatilmaydi.

Korreksion ishlari jarayonida ushbu muammolarni hal qilish uchun muloqot koʻnikmalarini shakllantirish uchun tabiiy ravishda yuzaga keladigan vaziyatlar, epizodlardan foydalanishga asoslangan “hamrohlikdagi taʼlim” usuli qoʻllaniladi (Carr, 1985). Tuzatish ishlari jarayonida kundalik vaziyatlardan foydalangan holda oʻquv vazifalari va mashqlarni bajarish birlashtiriladi. Bu bolaga rivojlanayotgan muloqot qobiliyatlarini turli xil ijtimoiy vaziyatlarga oʻtkazishga imkon beradi.

Ushbu shartni amalga oshirish uchun bola atrofidagi kattalar har bir vaziyatni kommunikativ oʻzaro munosabatlarni oʻrnatish uchun potentsial imkoniyat deb hisoblashlari kerak. Bu bolaning xatti-harakati va hissiy reaksiyalariga nisbatan juda ehtiyotkor boʻlishni talab qiladi. Agar kattalar bolaning biror narsaga qiziqishini yoki oʻzaro munosabatlarga tayyorligini payqagan boʻlsa, u kommunikativ jarayonni shakllantirish uchun imkoniyat topishi kerak.

Muhimi shundaki, bunday vaziyatlarda uning kommunikativ koʻnikmalarini tabiiy mustahkamlash, yaʼni mukofot sifatida bolaning nutq faoliyati natijasi – uning xohish-istagini, ushbu vaziyat bilan bevosita bogʻliq boʻlgan niyatini amalga oshirish sodir boʻladi. Bu bolaga aytilgan ibora maʼlum bir natijaga olib kelishini tushunishga imkon beradi. Bolaga ogʻzaki nutq yordamida boshqa odamlarning xatti-harakatlariga taʼsir qilish va xohlagan narsasiga erishishi mumkinligi koʻrsatiladi.



## II BOB. AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV TA'LIM SUBYEKTLARI FAOLIYATINING INTEGRATSIYASI

### 2.1. Mikromuhit va muloqot

Butun dunyoda autizm spektrida kamchiliklari bo'lgan bolalarga yordam berish tizimi doimiy ravishda takomillashtirilib, butun dunyoda tan olingan psixologik va pedagogik yondashuvlar amaliyotga joriy etib borilmoqda. Ammo, amalga oshirilayotgan psixologik va pedagogik dasturlarning aksariyati autizm sindromli bolalar oilasining korreksion faoliyatga qamrab olmaslik kuzatiladi. [40] Holbuki, bizning fikrimizcha, ASB bolalarni tarbiyalayotgan butun oila psixologik-pedagogik yordamning markazi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Oila har qanday bolani, ayniqsa nogiron bolani rivojlantirish uchun eng muhim manbadir. Bu nafaqat bola ehtiyojlarning ko'pini qondirishni ta'minlaydi, balki shaxsning ma'naviy va axloqiy asoslarini shakllantirishga, o'zini anglashga yordam beradi, ijtimoiy o'zaro ta'sirning birinchi tajribasini taqdim etadi va keyingi bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi. Autizm sindromli bolaning oilasi uning rivojlanish dinamikasiga, reabilitatsiya, tuzatish va rivojlantirish tadbirlarining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.[41]

Autizm sindromli bolaning ota-onalari nafaqat neyrotipik bolalarning oilalariga yuklatilgan barcha funktsiyalarni, balki bolaning kasalligi tufayli yuzaga keladigan bir qator o'ziga xos funktsiyalarni ham bajaradilar. Ular samarali yordam yo'nalishlarini tanlash, mutaxassislarni izlash va ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun mas'ul sifatida psixologik va pedagogik tuzatish ishlarida ham ishtirok etadilar, zarur intensiv mashg'ulotlar rejimini ta'minlaydilar, bolaning ko'nikmalarini umumlashtirib, mustahkamlaydilar.

L.Sh.Nurmammedovanning "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada alohida ehtiyojli farzandi bor ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko'rsatmalarga muhtojligi tahlil qilinib, bir qator ilmiy tadqiqot natijalari olingan.[42]

Autizm sindromli bolaning oilasi uni tarbiyalash, o'qitish, ijtimoiy moslashish va jamiyatga integratsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun keng imkoniyatlarga ega, ammo amalda u juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi.

Mutaxassislarining tadqiqotlariga ko'ra, ushbu nuqsonga ega bo'lgan bolaning tug'ilishi butun oila uchun jiddiy va murakkab sinovdir. Autizmli bolalarni tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik qilish, oilani turli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan depressiv holatga keltiradi. Oiladagi stressning asosiy sabablari nuqsонning og'irligini, jamiyatni avvaldan shakllangan baholashini o'z ichiga oladi. Ota-onalarning hissiy kechinmalari autizm bilan kasallangan bolani rivojlantirish va tarbiyalash bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli faqat uzoq vaqtdan keyin o'zgaradi.

Autistik bolalar odatda oilada birinchi va ko'pincha yagona bolalardir. Tajribaning yetishmasligi tufayli ota-onalar uzoq vaqt davomida bolaning o'ziga xos xususiyatlarini sezmaydilar. Bola hayotining uchinchi yilida ota-onalar "qattiq zarba"ga uchraydilar, sababi aynan shu davrda bolaning kamchiliklari aniq namoyon bo'lishni boshlaydi. Ota-onalarning reaksiyasi bolaning aloqasizligidan tushkunlikka, sarosimaga tushish, o'zini ojiz his qilishi, "yomon irsiyat"ning roli bilan bog'liq xavotirli qo'rquvda namoyon bo'ladi. Bu bolani "me'yordagi" bolalar bilan noo'rin taqqoslashi orqali yanada kuchayadi. Taranglik, oilaviy munosabatlarning yashirin yoki aniq mojarosi, ota-onalarning o'zaro ayblovlarini kuzatiladi.

Ota-onalarning pozitsiyalari turlicha bo'lishi mumkin. Ulardan ba'zilari bolaning bor yutuqlari va imkoniyatlarini past baholaydilar, uning kamchiliklariga ko'proq e'tibor berishadi. Ular boladan uyalihsadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni qat'iy direktiv tamoyillarga asoslanadi. Boshqa ota-onalar, aksincha, farzandlarining yutuqlarini har tomonlama oshirib yuborishadi va ularning kamchiliklarini yashirishadi. Ko'pincha, ota-onalarning o'zlari bola o'rniga vazifalarni bajaradilar, buni o'zlari sezmay, farzandlariga yuqori baho beradilar.

Autizm sindromli bola bilan ishlaydigan mutaxassis yaqinlarining alohida xususiyatlari haqida bilishi kerak. Tashxis qo'yish vaqtida oila og'ir stressni boshdan kechiradi. Oila uchun stress holati

surunkali holatga aylanishi tabiiy hol. Oila qo'ni-qo'shnilarning yomon munosabatlariga, transportda, do'konda, ko'chada va hatto bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida odamlarning tajovuzkor reaksiyalariga duch kelishi mumkin. Dunyo bo'ylab autistik bolalarni tarbiyalayotgan oilalar boshqa xususiyatlarga ega, hattoki aqliy zaif bolalari bo'lgan oilalarga qaraganda ko'proq azob chekishadi. Bola yoshligidan onasi bilan visual kontaktga kirishmaydi, quchog'ida bo'lishni yoqtirmaydi, ba'zida uni boshqa odamlardan ajratmaydi, muloqotni yoqtirmaydi.[32] Bunday bola onaga yetarlicha hissiy munosabat, muloqot quvonchini keltirmaydi. Bu depressiyaga, asteno-nevrotik ko'rinishga olib keladi.

O'z navbatida, O.S.Nikolskaya "autistik bolalarning xulq-atvoridagi buzilishlar tufayli ko'pincha onalar o'zlarini "yomon onaman" deb baholaydilar". "Men yomon onaman shuning uchun ham bolam menga qaramaydi, menga tabassum qilmaydi" kabi iboralar bilan o'z fikrlarini tasdiqlaydilar.

V.V.Leshin fikriga ko'ra EBA sindromli bolani oiladagi tarbiyasining deformatsiya qiladigan bir qator shartlar 5-sxemada mavjud:

*ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda moslashuvchanlikning yo'qligi*

*yaxshi munosabatlar variantini qidirmaslik*

*an'anaviy munosabatlar shakllariga rioya qilish (masalan, bizda shunday bo'lgan)*

*kasal bolaning psixologiyasini bilmaslik*

### **2.1.1-sxema. EBA sindromli bolaning oiladagi tarbiyasini deformatsiya qiluvchi shart-sharoitlar.**

Ta'lim maqsadlarini taqdim etmasdan, bolaning imkoniyatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini baholamasdan, autist bolalarni tarbiyalashda tajribaga ega bo'lmasdan amalga oshirish qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra, ota-onalarni psixologik va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish jarayoni uzoq davom etishi va bolaning korreksion tuzatish ishlariga jalb qilingan barcha

mutaxassislar(tarbiyachi, o'qituvchi-defektolog, nutq terapevti, iytutor, psixolog)ning ishtirokini ta'minlovchi kompleks yondashuvni talab qilishi aniq.

Olimlar nutqni shakllanishida atrof-muhitning ijtimoiy omillari asosiy o'rinda ekanligini ta'kidlaydilar. Bolaning tashqi dunyo bilan aloqa qilishning birinchi usuli bu qichqiriq — "albatta refleks reaksiyasi". Keyinchalik bolaning nutqida "artikulyatsion organlari bilan o'ziga xos o'yin bo'lgan gugulash, guvurlash paydo bo'ladi. "Taxminan uch oydan boshlab, ona bilan muloqotga birinchi ijtimoiy reaksiya chaqaloqning sof refleks reaksiyalariga ham ta'sir qiladi". Bolaning onasi bilan aloqasi uning birinchi kommunikativ reaksiyasini — tabassumni keltirib chiqaradi. Yig'lash, turli xil tovushlar bilan chaqaloq onaning yo'qligiga, uning salbiy intonatsiyasiga javob beradi. N.I.Lepskaya ona va bolaning o'zaro ta'siri "muloqotning asl hissiy tomoni paydo bo'lishidan dalolat beradi" degan xulosaga keladi. Bolada onaning unga murojaat qilishiga reaksiya shakllana boshlaydi, boshqa odam bilan birgalikda muloqot qilishdan zavqlanishni his qilish qobiliyati shakllanadi. Aynan nutqdan oldingi davrda nutqning fonetik asosi, shuningdek, muloqotning birinchi shakllari — "onaning bolaga qaratilgan nutqi", "onaning erkalab gugulashi" va noverbal, hissiy jihatdan rang-barang dialog yotadi. Nutq paydo bo'lishidan oldin ham bolalar kommunikativ xatti-harakatlarni rivojlantiradilar. O.V.Bogdashina - "Autizm spektrida kamchiligi bo'lmagan bolalarda og'zaki kommunikativ xatti-harakatlar taxminan bir xil, uni boshqalar anglashi va tushunishi oson. Ammo autist bolalarda noverbal nutqi, boshqa odamlar tushunadigan muloqot qobiliyatlari yo'qdek tuyuladi va hatto ular tovushlar va so'zlarni talaffuz qilsalar ham, ularning kommunikativ vazifasi boshqacha", deb yozadi. ASB bilan og'rigan bolalar turli xil tovushlar, qichqiriqlar, ba'zi hollarda imo-ishoralar yordamida onaning e'tiborini jalb qilishlari mumkin, ammo buyruq, talab, murojaatni me'yorda ifodalash ular uchun qiyin. Ular ko'z bilan visual aloqa qilmaydilar, umumiy e'tiborni jalb qilmaydilar, imo-ishora bilan o'zining ko'rish sohasida biron bir narsani ko'rsatadilar, onaning javobini kuzatmaydilar, uning ovoqli tovushlari va yuz ifodalarga taqlid qilmaydilar. ASB bolalar atrofda dunyoning tashqi signallarini subyektiv ravishda tushunishadi, ammo ularning

ogʻzaki xatti-harakatlari faqat ota-onalarga tushunarli, boshqalar uchun tushunarsizdir. Nutqdan oldingi davrda ASB bolalar nutqning prosodik tomonini oʻzlashtirmaydilar: intonatsiya, semantik stress, ohang va boshqalarni mos ravishda, yetarli darajada ishlatmaydilar. ASB bolaning atrofdagi tovushlarga, onaning nutqiga boʻlgan qiziqishining pasayishi nutq-eshitish analizatorining rivojlanishini sekinlashtiradi, zaif, ohangsiz, bir xil turdagi nutq talaffuz tizimining shakllanishiga taʼsir qiladi. Autizm spektrida kamchiligi bor bolalar baʼzi hollarda oʻz ismlariga javob bermaydilar, shu bilan birga yaxshi jismoniy, nutq eshitish qobiliyatiga ega, ammo tovushlar, boʻgʻinlar, soʻzlar aloqa qilish, kerakli narsalarni olish uchun ishlatilishi mumkinligini tushunmaydilar. Ular koʻp yillar davomida gugulash va guvurlash darajasida qoladilar, artikulyatsiya organlaridan foydalanishning sezgi hissiyotlarini yetkazadilar, yaqinlari bilan qanday munosabatda boʻlishni meʼyoriy usulini bilishmaydi. ASBning yengil shakllari bilan bolaning nutqdan oldingi rivojlanishi deyarli meʼyorda kichadi. Baʼzi hollarda autist bolalarning nutqining rivojlanishi sogʻlom tengdoshlari nutqi shakllanishining vaqtinchalik bosqichlaridan oldinda boʻlishi mumkin. Ilgari shakllangan ogʻzaki koʻnikmalarining qisman yoki toʻliq yoʻqolishi boʻlgan autizm sindromli bolalarda nutq regressiyasining holatlari juda keng tarqalganidir.[43]

Ota-onalarni korreksion-tuzatish va rivojlantirish ishlariga jalb qilish autizm sindromli bolalarga samarali yordam berishning zaruriy shartidir. Ota-onalar bilan ishlashning asosiy maqsadi bolani oʻqitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini hal qilish, oila va taʼlim muassasasining samarali oʻzaro hamkorligini yoʻlga qoʻyish, ota-onalarning malakasini oshirishdir.[44]

Autizm bilan kasallangan bolani ijtimoiylashtirishning asosiy manbai uning oilasidir. Ushbu toifadagi bolalar uchun oila kuchli psixologik omil hisoblanadi. N.N.Malofeev nogironligi mavjud bolalarning bolaligini toʻlaqonli oʻtkazish, yaʼni tengdoshlari bilan muloqot qilish, oʻynash va zavqlanish, qarindoshlarining gʻamxoʻrliigi va diqqat-eʼtiboridan foydalanish huquqiga ega ekanligini taʼkidlaydi.

Inklyuziv taʼlim sharoitida autizm sindromli bolalarning nutqini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish-

dan oldin, nutqning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan atroflicha eksperimental tadqiqotlar olib borilgan (A.R.Luriya, O.S.Nikolskaya, M.I.Lisina, S.Y.Benilova, N.N.Zavadenko, T.E.Braudo, M.Y.Bobilova, M.V.Kazakova, M.O.Tamyazan va b.). Olib borilgan tadqiqot ishlari shuni koʻrsatadiki, nutqning meʼyorida rivojlanishiga avvalom bor, barcha psixik jarayonlarning muvofiqlikda ishlashi va nutq rivojlanishiga yaratilgan shart-sharoitlar, usul va vositalarga bevosita bogʻliq ekanligi aniqlangan.

Autizm spektrida kamchiligi boʻlgan bolalar bilish jarayonlari va nutqining rivojlanganlik darajasini hamda undagi muammolarni aniqlash maqsadida, bolalarning shaxsiy hujjatlari, ambulator kartasi, anamnez maʼlumotlari, tor doiradagi mutaxassis shifokorlarning qoʻlyozmalari oʻrganilib, tahlil qilinadi va shu bilan birga L.R.Moʻminova tomonidan nutqida muammolari boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini tekshirish metodikasi va S.A.Greben, T.V.Dokunina, I.V.Grigoryeva, S.A.Marchuk, O.Y.Zaxarevich muallifligi ostida 4-7yoshli autizm spektrida kamchiligi boʻlgan bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlash metodikasi foydalaniladi. Ushbu metodikalar orqali tarbiyalanuvchilarning lugʻat zahirasi (impressiv va ekspressiv lugʻati), nutqning grammatik qurilishi, tovush madaniyati, bogʻlangan nutqi va mustaqil nutqini oʻrganiladi.

Soʻrovnomada autizm sindromli bolalar muloqot koʻnikmalarini, sohasini, kamchiliklarini hamda bola bilan muloqot qilish jarayonida foydalanish kerak boʻlgan optimal muloqot vositalarini aniqlashga doir savollar va fikrlar soʻraladi.

## **2.2. Autizm sindromli bolalar ijtimoiylashuvida muloqotning oʻrni va uni egallashdagi toʻsiqlar**

Autizm sindromli bolalar ijtimoiylashuvning asosiy manbalari bu ularning oilasi hamda taʼlim muassasalari hisoblanadi. Autizmli bolalar ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishda eng jiddiy buzilishlarga ega va maxsus psixologik va pedagogik yordamni talab qiladi. Autizmli bolalarda korreksion tuzatish ish tizimi maʼlum qiyinchiliklarga

duch keladi, chunki autizm asab tizimining patologiyasi bilan tavsiflanadi va bolaning hissiy aloqasini va ijtimoiy moslashuvini shakllantirishni qiyinlashtiradi.

Taqlid qilish rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir. Uning yordami bilan bola hali bir yoshga to'lmagan holda, xatti-harakatlarni o'zlashtirishni boshlaydi. U buni kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish, nigohlarini ularga qaratish va bu harakatlarni bajarishga taqlid qilish orqali amalga oshiradi. Agar u ijobiy hissiyotlarni qabul qilsa, u holda harakat yaqin kattalar tomonidan ma'qullangan va keyinchalik ular bilan aloqada foydalanish uchun mos bo'lgan xotirada saqlanadi.

Taqlid qilish jarayonida bolaning har bir sezgi a'zolari, idroki, xotirasi, tafakkuri kabi oliy bilish jarayonlari hamda o'zlashtirganlarini amalda takrorlab ko'rishi uchun umumiy va mayda motorikaning me'yorda ishlashi juda muhim sanaladi va albatta, bularning hammasi o'zaro bog'liqlikda hamda mutanosiblikda bo'lishi zarur.

Bolalarga kattalar tomonidan baho berilishi va qo'llab-quvvatlanishi bolalar ijtimoiylashuvida muhim tarkibiy qism sanaladi. Bolalar uylaridagi tarbiyalanuvchilar orasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: yaqin kattalarning yo'qligi, hatto to'liq somatik va nevrologik jihatdan sog'lom bolada ham rivojlanishni sezilarli darajada ortda qoldiradi.

Tabassum, intonatsiya, quchoqlash, har qanday teginish aloqasi, kulish, qarsak chalish va boshqalar kabi kattalar tomonidan ijobiy mustahkamlash – bolada taqlid qilishga bo'lgan hissini shakllantiradi. Agar kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, bolaning taqlid qilish harakatlari ma'nosiz bo'lib qoladi va ularda taqlid qilishga qiziqish so'nadi.

Autizm sindromli bolalarning har qanday ijobiy xatti-harakatlari, muloqot elementlari mustahkamlanib, qo'llab-quvvatlanishi ulardagi rivojlanish dinamikasini sezilarli tarzda samaradorligini oshiradi.

ASB bolalar rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bolalarda boshqa kasalliklarda uchraydigan nevrologik belgilari orasida uyqu, muloqot va nutqning buzilishi, EEGdagi paroksizmal faollik hamda psixik jarayonlarda kamchiliklar qayd etiladi.

Adabiyotlarda ASB bolalarda nutq funksiyasining buzilishining dastlabki belgilari sifatida quyidagilar ko'rsatish mumkin:

bola hayotining 6 oyiga qadar gugulash va guvurlashning yo'qligi;  
7-8 oylikda o'z ismiga javob bermasligi;  
12 oylikda faol guvurlash yoki ishora jestining yo'qligi;  
16 oylikda o'z-o'zidan so'zlar hosil bo'lishining yo'qligi;  
24 oyga kelib boshlang'ich frazeologik(iborali) nutqning yo'qligi;  
36 oylikda oddiy grammatik tuzilmalarning yo'qligi.

Nutqni rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari autizm holatlarining **70 foizida** qayd etiladi. Autizm sindromli bolaning nutqi yo'qligi ota-onalarning nutq terapevtiga murojaat qiladigan birinchi alomatidir. Bu turdagi bolalarda birinchi so'zlar o'rtacha 12 oydan 18 oygacha, birinchi iboralar (lekin jumlar emas) 20 oydan 22 oygacha paydo bo'ladi. Ayrim holatlarda birinchi so'zlarning paydo bo'lishi 3-4 yilgacha kechikishi mumkin. Agar bolaning lug'at zahirasi 2-3 yoshlarda me'yorda bo'lsa ham, bolalar savol bermasliklari (bu yosh bolalarga xos bo'lgan tomon) o'zlari haqida gapirmasliklari mumkin. Odatda, bolalar noaniq bir narsani g'o'ldiraydilar.

Ko'pincha bola nutq shakllangandan keyin gapirishdan to'xtaydi va bolada mutizm holati kuzatiladi. Bolaning so'z boyligi yoshga qarab boyishi mumkin bo'lsa-da, nutq kamdan-kam hollarda muloqot qilish vositasi sifatida qo'llaniladi. Bolalar dialoglar, monologlar, she'rlarni so'zlashlari mumkin, ammo so'zlardan muloqot uchun foydalanmaydilar.

Autizm sindromli bolalar uchun nutq rivojlanishiga kommunikativ funksiyasining buzilishi, exolaliya, nutqda shaxsiy ("men") olmoshlarning yo'qligi yoki kech paydo bo'lishi, dialogning rivojlanmaganligi, prosodikaning o'ziga xos buzilishi, neologizm, avtonom nutqqa moyillik kabi o'ziga xos xususiyatlar xos. Sog'lom bolalar rivojlanishining erta bosqichlarida tabiiy ravishda paydo bo'ladigan nutqning shakllanishi atrof olam bilan tanishishda, o'yin faoliyatida, kundalik hayotda va hokazolarda erkin nutq aloqalarida sodir bo'ladi. ASB bolalarda na kundalik hayotda, na o'yinda, na boshqa holatlarda erkin nutq aloqasi amalga oshirilmaydi, shuning uchun nutqni tuzatish imkon qadar erta boshlanishi kerak.

S.A.Greben, T.V.Dokunina, I.V.Grigoryeva, S.A.Marchuk, O.V.Zaxarevich muallifligi ostida 4-7yoshli autizm spektrida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlash metodikasi asosida bolalarning nutq va muloqot ko'nikmalarining

rivojlanganlik darajasini aniqlanadi.

Autizm sindromli bolalar nutqi va muloqot ko'nikmalarining rivojlanganligini tekshirish o'z ichiga besh tekshiruvni qamrab olgan usul bo'yicha amalga oshiriladi:

**1. Nutqning impressiv va ekspressiv tomonini tekshirish.** Tilning faol lug'ati va grammatik qurilishini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar yoki eshitish qobiliyati saqlanib qolganda nutqni tushunish qobiliyatining rivojlanishidagi buzilishlar mavjudligini aniqlash uchun 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi.

- 1.1 impressiv nutqini aniqlash;
- 1.2 ekspressiv nutqni aniqlash;
- 1.3 o'ziga qaratilgan nutqni tushunishini aniqlash.

**2. Nutqning grammatik qurilish tomonini tekshirish.**

Bola nutqining grammatik qurilishining rivojlanganini, nutqida shaxs-son olmoshlarining mavjudligi va ibora, gaplardan to'g'ri foydalanishini aniqlash uchun 3 ta vazifadan foydalaniladi:

2.1 nutqda shaxs-son olmoshlarining to'g'ri qo'llanilishini aniqlash;

2.2 rasmlar bo'yicha gap tuzishini aniqlash;

**3. Kattalarga bo'lgan munosabati, muloqot ko'nikmasi va bog'langan nutq tomonini tekshirish.**

Bolalarning kattalarga bo'lgan munosabati, atrofdagi shaxslar bilan o'zaro aloqa ko'nikmalarini hamda bog'langan nutqini tekshirish uchun 3 ta topshiriqdan foydalaniladi:

- 3.1 kattalar bilan o'zaro munosabatlarini aniqlash;
- 3.2 muloqot qobiliyatini aniqlash;
- 3.3 so'rovlarni ifodalash qobiliyatini aniqlash.

**4. Nutqning fonetik-fonematik tomonini tekshirish.**

Nutq tovushlarining talaffuzini tekshirish uchun 2 ta topshiriqdan foydalaniladi:

- 4.1 tovushni talaffuz qilish qobiliyatini aniqlash;
- 4.2 so'zning bo'g'in tuzilishini shakllanish qobiliyatini aniqlash.
- 4.3 nutqning hissiy ekspressivlik qobiliyatini tekshirish.

**5. Nutqning prosodik tomonini tekshirish.**

Nutqning prosodik tarkibiy qismlaridan yetarli darajada foydalanishi, muloqot vaqtida ovozning tempi, ritmi, ohangdorligi tomonlarini tekshirish.

- 5.1 nutqning tempi, ritmi, ohangdorligini tekshirish;
- 5.2 ovoz kuchi, balandligi va modulyatsiyasini tekshirish;
- 5.3 to'g'ri nutqiy nafas shakllanganligini aniqlash.

Barcha turdagi topshiriqlar bolalar bilan yakka holda amalga oshiriladi.

**1. Nutqning impressiv va ekspressiv tomonini tekshirish.**

**1-topshiriq. "Impressiv nutqini tekshirish".**


Autizm sindromli bolalar nutqining impressiv (perseptiv) tomonini tekshirilganda, bolalar pedagog ko'rsatmasiga ko'ra kerakli rasmlarni ko'rsatishlari kerak. Pedagog bolalarga aniq predmet va narsalar yoki ular tasvirlangan rasmlar asosida "Koptokni ko'rsat", "Ayiqcha qani?" tarzidagi og'zaki ko'rsatmalar orqali murojaat qiladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

- 3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;
- 2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;
- 1 ball – bola vazifani bajara olmasa;
- 0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

**2-topshiriq. "Ekspressiv nutqini tekshirish".**

Faol lug'atni tekshirish uchun rasmi lug'atdan foydalanildi, shu jumladan 50 so'zdan iborat – predmet va narsalarning nomlari, harakati, sifat va xususiyat belgilari (1-ilova). Tekshiruv uchun olingan so'zlar 40 ta ot, 5 sifat va 5 fe'lni o'z ichiga oladi.



1.2.1-rasm. Bolalar nutqining impressiv va ekspressiv tomonini teshirishda foydalaniladigan ko'rgazma.

Nutqning ekspressiv tomonini tekshirish uchun bolalarga predmet va narsalarning tasviri tushurilgan rasmlar namoyish etildi va bolalardan uni nomlash soʻraladi. Rasmlar mazmuniga koʻra bolalarga quyidagicha savollar beriladi: Kim? Nima? Qanday? Qanaqa? Nima qilyapti? va hokazo, bu savollarga bola ogʻzaki tarzda javob berishi kerakligi belgilanadi.

Natijalari ballarda baholanadi:

- 3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;
- 2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;
- 1 ball – bola vazifani bajara olmasa;
- 0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

**3-topshiriq. “Oʻziga qaratilgan nutqni tushunish”.**

Bolalarda oʻziga qaratilgan nutqni tushunishini tekshirish uchun ushbu topshiriq kichik guruhlarda olib borildi ham bolalarga ismi bilan murojaat qilinib, sodda vazifalar yuklanadi. Masalan, “Yunus, koptokni olib kel”, “Jasmina, oʻrningdan tur” va hokazo.

Ushbu vazifalarni bajarishda bolalarning individual xususiyatlari va kayfiyati inobatga olinadi.

Natijalari ballarda baholanadi:

- 3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;
- 2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;
- 1 ball – bola vazifani bajara olmasa;
- 0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

**II. Nutqning grammatik qurilish tomonini tekshirish.**

**1-topshiriq. “Nutqda shaxs-son olmoshlarining toʻgʻri qoʻllash”.**

Bolalarda men, sen, u (shaxs-son) olmoshlarining nutqida qoʻllanilish holatini tekshirish uchun oʻzining, guruhidagi boshqa bolalarning hamda tadqiqot oʻtkazuvchining fotosuratlarini namoyish etiladi hamda bolaga “Bu kim?” savoli beriladi. Bolalarning verbal va noverbal(koʻrsatish jesti) javoblari qayd etilib boriladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

- 3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;
- 2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;
- 1 ball – bola vazifani bajara olmasa;
- 0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.


**2-topshiriq. “Rasmlar asosida gap tuzish”.**

Bolalarga syujetli rasmlar asosida ularga tanish soʻzlardan gaplar

tuzish taklif etiladi. Bolalar taklif etilgan rasmlarda kim tasvirlangani hamda ular nima qilayotganini tasvirlab berishlari kerak edi. Mustaqil tarzda gap tuza olmagan bolalarga, yordam tarzida “Bu kim? Nima qilyapti? kabi savollar va frazali nutq uchun kartochkalar(noverbal nutqini tekshirish) beriladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

- 3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;
- 2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;
- 1 ball – bola vazifani bajara olmasa;
- 0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.



**2.2.2-rasm. Bolalar nutqning grammatik tomonini tekshirishda foydalaniladigan koʻrgazma.**

**III. Kattalarga boʻlgan munosabati, muloqot koʻnikmasi va bogʻlangan nutq tomonini tekshirish.**

**1-topshiriq. “Kattalar bilan oʻzaro hamkorlik”**

Bolaning kattalar bilan oʻzaro munosabati, bu bolaning maʼlum miqdordagi koʻrsatmalar va topshiriqlarni bajarishida kattalarning yordamini qabul qilishi va oʻzaro hamkorlikda faoliyat yuritishini tekshirish uchun oʻyin tarzida olib boriladi. Bunda bolaning qiziqish obyekti boʻlgan predmeti (stimuli) orqali bola muloqotga motivlashtirildi.

Natijalari ballarda baholanadi:

- 3 ball – bola oʻzaro hamkorlikda faoliyat yuritsa;
- 2 ball – bola oʻzaro hamkorlik uchun vaqt talab etilsa;
- 1 ball – bola kattalar bilan munosabatga kirishmasa;
- 0 ball – bola kattalar bilan munosabatga kirishmay, hamkorlikdagi

faoliyatdan voz kechsa.

### **2-topshiriq. "Muloqot ko'nikmalarini aniqlash".**

Bolalarning muloqot ko'nikmalarini aniqlashda Y.S.Gaydukevich, V.Gaysler, F.Gotan va b.lar metodikasidan foydalaniladi. Tadqiqotda bola uchun muhim bo'lgan insonlar, ya'ni pedagoglar va otionalardan so'rovnoma olishni o'z ichiga oladi. Tajriba jarayonida ASB bilan og'rigan bolalarning kommunikativ ko'nikmalarining shakllanish darajasi va xususiyatlari aniqlanadi.

1. ASB bilan og'rigan bolalar uchun muloqotning muqobil shakli;
2. Noverbal muloqotning xususiyatlarini o'rganish;
3. Verbal muloqot xususiyatlarini o'rganish;
4. Asosiy kommunikativ funksiyalarning xususiyatlari;
5. Interaktiv xatti-harakatlarning xususiyatlari;
6. Ruhiy-ijtimoiy qobiliyatlari.

Tadqiqotda o'tkazilgan so'rovnoma 2-ilovada beriladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – muloqot ko'nikmasi to'liq shakllangan bo'lsa;

2 ball – muloqot ko'nikmasi qoniqarli darajada shakllangan bo'lsa;

1 ball – muloqot ko'nikmasi qisman shakllangan bo'lsa;

0 ball – muloqot ko'nikmasi umuman shakllanmagan bo'lsa.

3-topshiriq. "So'rovlarni ifodalash qobiliyatini aniqlash".

Bola o'z nutqida o'zi ehtiyoj sezayotgan predmet va narsalarni qanday usullar(so'z, imo-ishora, yig'i) bilan so'rashini aniqlash uchun uning stimulidan(bolaning qiziqish obyekti) foydalangan holda amaliy mashq o'tkaziladi. Topshiriqni bajarishdan oldin otionalar va pedagoglar bilan suhbat o'tkazilib, bolalarni motivatsiyaga undovchi stimullari aniqlanadi. Bolaga turli xildagi predmet va narsalar namoyish etilib, so'ng ular yeg'ib olindi va so'rov ko'nikmasini ifodalashi kuzatiladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – bola pedagog bilan muloqotga kirishsa;

2 ball – bola muloqotga kirishishi uchun vaqt talab etilsa;

1 ball – bola muloqotga kirishmasa;

0 ball – bola muloqotga kirishmaydi, muloqotdan voz kechsa.

### **IV. Nutqining fonetik-fonematik tomonini tekshirish.**

#### **1-topshiriq. "Tovushlarga taqlid qilish".**

Rasmloi kartochkalar orqali nutqiy va nonutqiy tovushlar talaffuziga taqlid qilish so'raladi. Masalan, sigir rasmi ko'rsatilib, sigir qanday ovoz chiqaradi? Sigir "mu-u-u" deb ovoz chiqaradi, tarzida bolalarning tovushlar talaffuzi tekshiriladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;

2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;

1 ball – bola vazifani bajara olmasa;

0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

#### **2-topshiriq. "Bo'g'inlab ayt" o'yini.**

Bolalarga bir, ikki, uch bo'g'inli rasmlar kartochkalar berildi hamda ulardan ushbu so'zlarni bo'g'inlarga ajratish va talaffuz qilish so'raladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;

2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;

1 ball – bola vazifani bajara olmasa;

0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

#### **3-topshiriq. "Hissiy eshituv idroki".**

Hissiy eshituv idroki - bu nutq so'zlovchining hissiy holatini uning ovozi bilan aniqlash qobiliyati hisoblanadi. Respondentlarga turli emotsional ohangda(quvonch, jahl, xafagarchilik) 3 marotaba bir xil kontekstdagi gap talaffuz etiladi. Bola bayon etilgan gapni eshitib unga mos emotsiya tasvirlangan kartochkasi ko'rsatish so'raladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;

2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;

1 ball – bola vazifani bajara olmasa;

0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

### **V. Nutqining prosodik tomonini tekshirish.**

#### **1-topshiriq. "Nutqning ohangdorligi va ifodaliligini tekshirish".**

Tekshiruv quyidagi vazifalar yordamida amalga oshiriladi: she'r yodlash, matnlarni qayta hikoya qilish, rasmlarni nomlash orqali nutqning ohangdorligi va ifodaliligini tahlil qilinadi.

Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – bola nutqining prosodik tomonida kamchilik kuzatilmasa;

2 ball – bola nutqining prosodik tomonida qisman kamchilik kuzatilsa;

1 ball – bola nutqining prosodik tomonida sezilarli kamchiliklar kuzatilsa;

0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

**2-topshiriq. “Ovoz kuchi, balandligi va modulyatsiyasini tekshirish”.**

Bolalarga katta va kichik ayiq, bo‘ri, sher kabi hayvonlar rasmi ko‘rsatiladi va ovozloriga baland ovozda hamda past ovozda taqlid qilish so‘raladi.

Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;

2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;

1 ball – bola vazifani bajara olmasa;

0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.

**3-topshiriq. “Nutqiy nafasni tekshirish”.**

“Kapalaklar uchyapti” va “Issiq choy” nafas mashqlari orqali bolaning to‘g‘ri nutqiy nafasni egallaganligi tekshiriladi.


Natijalari ballarda baholanadi:

3 ball – bola vazifani xatosiz bajarsa;

2 ball – bola vazifani pedagog yordamida bajarsa;

1 ball – bola vazifani bajara olmasa;

0 ball – bola vazifani bajarmaydi, bajarishdan voz kechsa.



**2.2.3-rasm. To‘g‘ri nutqiy nafasni tekshirishda foydalaniladigan didaktik materiallar.**

Har bir topshiriq va vazifalarni bajarish uchun bajarishga oid ko‘rsatmalar berilib, autizm sindromli bolalarga topshiriqlarni o‘tkazish oldidan tushuntirish ishlari ularni yosh xususiyatlari va bilish jarayonlarini nazarda tutgan holda olib boriladi.

Topshiriqlarni bajarishga kirishishdan oldin tekshiriluvchiga nima qilishi va uning beradigan javoblari qanday shaklda bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida og‘zaki va muqobil shakllarda ko‘rsatmalar beriladi. Shundan so‘ng, tekshiriluvchi topshiriqni bajarishga kirishadi, eksperimentator tomonidan esa bayonnomada bolalarning barcha javoblari o‘zgarishsiz qayd etib boriladi. Bunda tekshiriluvchilarga ko‘rsatilgan qo‘shimcha yordam, uning natijasi, bolaning tadqiqot o‘tkazish vaqtidagi xulqining xususiyatlari, uning topshiriqqa nisbatan munosabati ham e‘tiborga olinib, bayonnomada barchasi o‘z aksini topadi. Shu bilan birga bayonnomada bolalarning topshiriqni bajarishdan bosh tortishi holatlari ham qayd etilib, ushbu ruhiy holatni keltirib chiqaruvchi omillar aniqlanadi.

Tekshiriluvchining har bir topshiriqni bajarish bo‘yicha xatti-harakatlarini baholashda quyidagi omillarga e‘tibor qaratiladi: pedagog bilan munosabatga va hamkorlikka kirishishga tayyorligi; topshiriqlarni anglashi va qabul qilishi; o‘z xatolarini aniqlash qobiliyati; faoliyat jarayoni va natijasiga qiziqishi; topshiriqlarni bajarish usuli (mustaqil ravishda, na‘munadan so‘ng, birgalikdagi faoliyatdan so‘ng, bajarilmasligi); muloqot jarayonida qanday usullardan foydalanishi (verbal, noverbal muloqot, muqobil shakllar); natija: kattalar na‘munasiga to‘liq mosligi, qisman mosligi, bajarilmasligi.

Autizm sindromli bolalar nutq va muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishini tekshirish va tahlil qilish maqsadida ko‘rgazmali materiallar sifatida predmetli, syujetli rasmlar, o‘yinchoqlardan foydalanish, AKT vositalarini qo‘llash kerak.

Autizm sindromli bolalar nutq va muloqot ko‘nikmalarini o‘rganish jarayonida tibbiy-pedagogik hujjatlarni tahlil qilish, anamnez ma‘lumotlarini yeg‘ish, eksperiment, suhbat, so‘rovnoma olish, kuzatish va tekshirish natijalarini statistik baholash metodlaridan foydalaniladi.

Tibbiy-pedagogik hujjatlarni o‘rganish jarayonida bolalarning psixik jarayonlari, nutqining rivojlanganlik holatini aniqlash uchun ularga berilgan psixologik-pedagogik va tibbiy tavsifnomalarni



o'rganishga katta e'tibor qaratiladi. Bola haqidagi anamnestik ma'lumotlarni o'rganish vaqtida bolalarni umumiy rivojlanish holatlariga ham alohida e'tibor beriladi. Defektolog va tarbiyachilar bilan olib borilgan suhbat jarayonida bolalarning xulq-atvoridagi o'ziga xos tomonlar, ularning "stimullari", o'yin va nutq faoliyati, ta'limdagi o'zlashtirish darajasiga oid bizni qiziqtirgan masalalar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi.

### **III BOB. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQI USTIDA ISHLASHNING MAZMUNI, USULI VA SHART- SHAROITLARI**

#### **3.1. Inklyuziv ta'lim sharoitida autizm sindromli bolalarni korreksion-rivojlantiruvchi ish jarayoni**

Autizm sindromli bolalar bilan olib boriluvchi ta'lim-tarbiya jarayonida umumpedagogik va xususiy tamoyillar e'tiborga olinib, nutqni keng qamrovli rivojlantirish bo'yicha olib boriluvchi ishlarda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi:

*Kompleks ta'sir tamoyili* ushbu bola va uning ota-onasi bilan ishlaydigan barcha mutaxassislarning pedagogik tuzatish jarayonida ishtirok etish, o'zaro ta'sir o'tkazish va hamkorlikni o'z ichiga oladi;

*Sistemalilik tamoyili* autizm sindromli bolalar tomonidan muloqot ko'nikmalarini o'z-o'zidan o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan aloqani rivojlantirishda tizimli o'qitish va doimiy amaliyot zarurligini ko'rsatadi;

*Ko'rgazmalilik tamoyili* autizm sindromli bolalarga muloqot qobiliyatlarini o'rgatishda muhim yordam ko'rsatadigan qo'shimcha vizual yordamdan foydalanish zarurligini ochib beradi;

*Differentsial yondashuv tamoyili* autizm sindromli bolaning muloqot qobiliyatlarini shakllantirish darajasiga qarab pedagogik korreksion ishni tashkil etish usullari, uslublari va shakllarini tanlash zarurligini ko'rsatadi;

*Individual yondashuv tamoyili* autizm sindromli bolalarining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini ularning muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tuzatish jarayonida hisobga olish zarurligini nazarda tutadi;

*Nutqni aqliy rivojlanishning boshqa tomonlari bilan bog'liqligi tamoyili* nutqni shakllantirishning boshqa psixik jarayonlarning holatiga bog'liqligini ochib beradi. Ushbu aloqalarni aniqlash autizm sindromli bolalarning aqliy xususiyatlariga ta'sir qilishning markazida bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita muloqot qobiliyatlarini samarali rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Maktabgacha yoshdagi autizm sindromli bolalarda nutqni

rivojlantirish muammosini ko'rib chiqish til xususiyati, bolaning ijtimoiy va psixik rivojlanishidagi o'rni, me'yorda rivojlangan bolalar nutqi rivojlanishining psixologik va lingvistik xususiyatlari, autist bolalar nutqini o'stirishda ushbu xususiyatlarni hisobga olish bilan chambarchas bog'liq.

Autizm sindromli bolalarning nutq va muloqot ko'nikmalari sifatining oshishini ta'minlaydigan maxsus pedagogik shart-sharoitlarni tashkil etish, rivojlanish kamchiligini turi va og'irlik darajasini hisobga olgan holda, og'zaki nutqni korreksion-tuzatish ishlari jarayonida individual-differensial yondoshgan holda nutq talafuzini yaxshilash ishlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni kiritish, ta'lim tashkilotining barcha mutaxassislari va ota-onalarning uzluksiz hamkorlik ishini ta'minlashdan iborat.

Autizm sindromli bolalar nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun turli xil usullardan:

shakllantiruvchi pedagogik tajriba (yakka tartibda va kichik guruhli shakllarda);

autizm sindromli bolalarda nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash uchun xulq-atvor usullaridan;

hamrohlikda faoliyat yuritish usuli – autizm sindromli bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda bolaning shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda kundalik tabiiy vaziyatlardan foydalanish;

muqobil muloqot usullaridan foydalanish - mimika, imo-ishora, jest, piktografik, PECS texnikasi;

autizm sindromli bolalarda nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'yinlar (ko'zgu oldidagi o'yinlar, predmetli o'yinlar, rolli o'yinlar va boshqalar);

exolaliyadan foydalanish;

mashqlar (og'zaki taqlid, rasmlarga sharh berish va boshqalar);


bola uchun qulay darajada individual suhbatlar o'tkazish;

ota-onalar bilan ishlashning individual shakllaridan foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari defektologlari bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, maxsus metodikalarga tayangan holda o'z oldilariga autizm sindromli bolalar nutq malakalarini korreksion-rivojlantiruvchi jarayonni nazarda tutuvchi maqsadni qo'yadilar hamda uni amalga oshirish uchun autizm sindromli bolalarga maxsus

tashkil etilgan serqirra jarayon hamda ota-onalar bilan o'tkaziluvchi turli-tuman tadbirlar orqali qo'llaniluvchi ta'sir choralari 1-sxemada o'z aksini topgan.

Autizm sindromli bolalar bilan ishlash jarayonida ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokiga ham alohida ahamiyat berilib, ularning uy sharoitida farzandlarining nutqini rivojlantirishni nazarda tutuvchi ish tizimi ishlab chiqish zarur. Ota-onalar bilan ishlashning turlicha shakllaridan: maslahat-konsultatsiyalar (pedagoglarning guruh va yakka tartibdagi maslahatlari), anonim muloqot, ma'rifiy (trening, ma'ruza, davra suhbatlari, mavzuga oid muhokamalar) va amaliy tadbirlardan (ochiq mashg'ulotlar, bayram tadbirlari, bolalar bilan hamkorlikdagi faoliyat) foydalangan holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Ularda asosiy e'tibor uy sharoitida bolalar bilan olib borilishi lozim bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimining yoritib berilishiga qaratiladi.



3.1.1-sxema. Inklyuziv ta'lim sharoitida autizm sindromli bolalarni korreksion-rivojlantiruvchi ish jarayon modeli

Autizm sindromli bolada nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning muvaffaqiyati pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. O'quv tajribasining mazmuni darslar, o'yin va kundalik vaziyatlar tizimi doirasida amalga oshirildi. Bolalar bilan ishlashning asosiy shakli defektolog, logoped, psixolog va musiqa rahbarining nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha individual va kichik guruhda mashg'ulotlari hisoblanadi.

Autizm sindromli bolalarda muloqot qobiliyatlarini pedagogik korreksiya jibiy motivatsiyani, bola uchun muqobil aloqa vositalarini, asosiy aloqa funksiyalarini, sotsioemotsional, dialog va o'yin ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan va mutaxassislar va ota-onalar tomonidan tuzilgan mashg'ulotlar, o'yin va kundalik vaziyatlar jarayonida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari: o'qituvchilar-psixologlar, defektologlar, logoped, musiqa rahbari, tibbiyot xodimlari va autist bolalarning ota-onalari o'tasidagi birgalikdagi ish davomida kompleks psixologik va pedagogik ta'sir o'tkaziladi. Muloqot ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida mutaxassislar va ota-onalarning o'zaro ta'sirini taxminan to'rt blokka bo'lish mumkin:

**1. O'qituvchi-defektolog va psixolog hamkorligi:**

muloqotga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish;  
verbal va nonverbal muloqot vositalaridan foydalangan holda mosiy kommunikativ funksiyalarini shakllantirish;  
ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish;  
muloqot ko'nikmalarini shakllantirish;

**2. O'qituvchi-defektolog va logoped hamkorligi:**

impressiv va ekspressiv nutqini shakllantirish;  
frazeologik nutqni rivojlantirish;  
muloqot ko'nikmalarini shakllantirish;  
nutqning prosodik tomonini shakllantirish.

**3. O'qituvchi-defektolog va musiqa rahbari hamkorligi:**

muloqot buzilishlarini korreksiyalashda musiqiy vositalardan foydalanish;


**4. O'qituvchi-defektolog hamda ota-onalar hamkorligi:**

fonematik idrokini rivojlantirish.

ota-onalarning pedagogik ta'limi;

kundalik vaziyatlarda muloqot ko'nikmalarini mustahkamlash.

Har bir mutaxassisning vazifalari va ularning autizm sindromli bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'zaro bog'liqligi pedagogik tuzatishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi:



### 3.1.2-sxema. Autizm sindromli bolalarda nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish korreksion-pedagogik ishning asosiy yo'nalishlari

#### 1. Kundalik va o'yin vaziyatlari jarayonida turli xil mashqlar bajarish orqali asosiy muloqot vositalarini shakllantirish.

Ushbu yo'nalish doirasida muloqotga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirish bo'yicha ishlar olib boriladi. O'ziga e'tiborni jalb qilish, so'rovlar, talablarni ifoda etish, boshqa odamning harakatlari, murojaati va savollariga yetarli darajada javob berish, atrofdagi voqealarga izoh berish, verbal va noverbal muloqot vositalaridan (yozma nutq, mimika, imo-ishoralar, piktogrammalar) foydalangan holda qiziqish ma'lumotlarini o'rganish qobiliyati shakllanadi. Ongli nutqni shakllantirish amalga oshiriladi.

#### 2. Kundalik va o'yin vaziyatlari jarayonida turli xil mashqlar bajarish orqali ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini shakllantirish.

Ushbu yo'nalish doirasida kommunikativ motivatsiya, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib boriladi. Verbal va noverbal muloqot vositalaridan foydalangan holda his-tuyg'ularni yetarli darajada ifoda etish va ular haqida mimika va imo-ishoralar orqali xabar berish qobiliyati shakllanadi. Ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari shakllantiriladi.

#### 3. Yakka tartibdagi suhbatlar, o'yinlar va mashqlarni o'tkazish orqali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

Ushbu yo'nalishdagi korreksion-rivojlantiruvchi ishlari davomida suhbatni boshlash va qo'llab-quvvatlash, suhbatdoshning so'zlariga yetarlicha javob berish, shuningdek kommunikativ o'zaro ta'sir jarayonini yakunlash qobiliyati rivojlantiriladi. Verbal muloqot qobiliyatlari mustahkamlanadi, belgilarning tashqi sifatlaridan foydalanish qobiliyati yaxshilanadi, noverbal muloqot va vizual aloqa tizimidan foydalanish qobiliyati shakllantiriladi.

#### 4. Turli xil o'yinlarni o'tkazish jarayonida o'yin faoliyatini shakllantirish.

Ushbu yo'nalishdagi tuzatish ishlari bolalarda turli xil obyektlar o'rtasidagi xususiyatlar va munosabatlarni tushunishni rivojlantirishga, atrofdagi dunyoning moddiy obyektlarining funksional maqsadini anglashga, bolaning bilim faoliyatini, fikrlash moslashuvchanligini, tasavvurini rivojlantirishga imkon beradi. Tasvir, so'z va uning ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik, nutqning ramziy va kommunikativ funksiyasining rivojlanishi sodir bo'ladi. Muayyan o'yin va kommunikativ vazifalarni bajarish qobiliyati shakllantiriladi.

Muloqot ko'nikmalarini shakllantirish birgalikdagi faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Nutqni, so'rovlarni sharhlash ko'nikmalarini mustahkamlash individual va kichik guruh shaklida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda yuzaga keladigan ijtimoiy va kognitiv xarakterdagi qiyinchiliklar tufayli axborot so'rash ko'nikmalarini shakllantirish, dialogik ko'nikmalar, syujet-namoyish, rol o'ynash o'yinlari individual shaklda amalga oshiriladi.

Nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan V.S.Sandrikova tomonidan taklif qilingan metodikaga tayangan holda takomillashtirilgan metodika va shu bilan birga o'yin texnikasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

## **I. Nutqning prosodik tomonini rivojlantirish.**

Prosodika - aniq va chiroyli nutqning muhim tarkibiy qismidir. Ovozli nutqning asosi, tovushlar, ovozning paydo bo'lish manbai nutqiy nafas hisoblanadi.

### **1. "Qurbaqachani oziqlantir" nafas o'yini.**

**Maqsadi:** bolalarda to'g'ri nutqiy nafasni shakllantirish va rivojlantirish.

**Vazifa:** burundan chuqur nafas olib, trubochkaga og'izdan davomli nafas chiqarish.

**Jihoz:** rangli qog'ozdan yasalgan "qurbaqachalar", naychalar, hasharotlar tasvirlangan rasmlar.

Bola bilan ko'zgu qarshida yoki bir-biriga stol atrofida qarama-qarshi o'tirib, pedagog na'munasi asosida burundan chuqur nafas olib, naychaga og'iz orqali puflanadi.

### **2. "Quvnoq Qurbaqa" o'yini.**

**Maqsadi:** bolalarda o'yin orqali artikulyatsion nutq apparat a'zolari mushaklari harakatchanligini oshirish.

**Vazifa:** "Qurbaqa" oziqlanishi uchun artikulyatsion gimnastik mashqlarni navbatma-navbat bajarib, tilini o'stirib, harakatchanligini oshirish.

**Jihoz:** laminatsiyalangan qog'ozga qurbaqa tasviri tushirilgan rasm, artikulyatsion mashqlar tasvirlangan kartochkalar.

Bola bilan birgalikda ko'zgu yoniga o'tirib, mashqlarni texnikasi defektolog tomonidan ko'rsatilib, bola esa pedagog ketidan takrorlaydi.

### **3. "Hayvonlarga taqlid qil" o'yini.**

**Maqsadi:** bolalar nutqining tempi, ritmi, ohangdorligini rivojlantirish.

**Vazifa:** katta hayvonga va uning bolalar ovozigacha taqlid qilish.

**Jihoz:** AKT vositalaridan foydalanish.

Mashg'ulot uchun maxsus yaratilgan animatsion slaydlar orqali hayvonlarning audio ovozlari eshittiriladi va taqlid qilish so'raladi. Avval katta hayvonlarga so'ng, uning bolalari ovozigacha taqlid qilish amalga oshiriladi.

## **II. Nutqning fonetik-fonematik tomonini rivojlantirish.**

### **1. "Hayvonning ovozidan top" o'yini.**

**Maqsadi:** bolalar fonematik diqqati va idrokini rivojlantirish.

**Vazifa:** slayd orqali hayvon ovozi eshittiriladi va boladan bu nimaning ovozi ekanligi so'raladi.

**Jihoz:** AKT vositalari va PECS kartochkalari.

Bolalarga maxsus tayyorlangan animatsion slayd orqali hayvonlar ovozi eshittirildi va boladan bu nimaning ovozi ekanligi so'raladi. Og'zaki nutqi hali shakllanmagan bolalar uchun muloqotning muqobil shakllari (PECS kartochkalari)dan foydalaniladi.

### **2. "Tovushlarga taqlid qil" o'yini.**

**Maqsadi:** nutqning fonetik tomoni va ko'ruv, eshituv idroki hamda diqqatini rivojlantirish.

**Vazifa:** tovushlar talaffuziga oid harakatlarga taqlid qilish.

**Jihoz:** yo'q.

Bolaning qarshisidagi stolga o'tirib va unga turli xil tovushlar qanday paydo bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Lunjlarni shishirib, keyin yuzimizga yengil urdik, Shunda o'z-o'zidan P tovushi talaffuziga erishiladi.

Davomli A tovushi talaffuz qilinib, shu vaqtning o'zida kaft bilan og'izga yengil uriladi. Shunda huddi hindular ovozigacha taqlid paydo bo'ladi.

Davomli tarzda I tovushi talaffuz qilinib, shu vaqtda ko'rsatkich barmoq bilan lablarni tez harakatlantirilib, bi-bi-bi ovozi chiqariladi.

Lablarni cho'chchaytirib, davomli va kuchli tarzda puflanadi, shunda Sh tovushi paydo bo'ladi.

### **3. "Unli tovushlarni kuylaymiz" o'yini.**

**Maqsadi:** oddiy unli tovushlarga taqlid qilish (A, O, U, E, I, O')

**Vazifa:** unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish.

**Jihoz:** rasmi kartochkalar.

Bola bilan xonaning qulay burchagiga o'tirib, birma-bir unli tovushli qo'shiq

kuylanadi hamda shu vaqtda tegishli rasm ko'rsatiladi. Bolaning diqqati pedagog artikulyatsion nutq apparatiga qaratiladi.

Bola asta-sekinlik bilan ushbu vaziyatga qo'shib boriladi hamda (hayvonlar yoki odamlar) tovushlarini taxminan talaffuz qilishiga olib borishga harakat qilinadi.

Bajargandan so'ng bola darrov rag'batlantiriladi va tovushni yanada aniqroq talaffuz qilishi so'raladi. Mashqlarni bajarishda tovushlar artikulyatsiyasiga oid albomdan foydalaniladi.

### III. Nutqning leksik tomonini rivojlantirish.

#### 1. "Menga ber" o'yini.

**Maqsad:** bolalarning impressiv nutq tomonini hamda ijtimoiy o'zaro munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish.

**Vazifa:** savatcha (quti)dan pedagog ko'rsatmasiga oid predmetlarni olib, ularni pedagogga berish.

**Jihoz:** savatcha (quti) va turli mavzuga oid predmetlar (masalan, koptok, olma mulyaji, qoshiq, telefon)

Pedagog bola bilan stol atrofida qarama-qarshi o'tirib va savatchani o'rtaga stol ustiga qo'yiladi. Bolaga predmetlarni tamosha qilish va o'rganishi uchun bir oz vaqt beriladi, so'ng pedagog qisqa va aniq tarzda boladan predmet nomini aytib, uni so'raydi. Masalan, "Menga olmani ber". Bola predmetni to'g'ri bersa, darrov rag'batlantiriladi va vazifa davom ettiriladi. Aksincha, noto'g'ri bajarganida bolaga ham verbal ham noverbal muloqot vositalari hamda tyutor yordamida ko'mak beriladi.

#### 2. "Uychasiga sol" o'yini.

**Maqsadi:** bolalarning nutqining ekspressiv tomonini rivojlantirish.

**Vazifa:** rasmlarni to'g'ri nomlab, o'z uychasiga solish.

**Jihoz:** Uycha tasviri tushirilgan, laminatsiyalangan A3 formatdagi rasm va PECS kartochkalari.

Bolalarga qarama-qarshi joylashib, rasmlar ko'rsatildi hamda ularning nomi to'g'ri va aniq talaffuz etiladi. So'ng boladan rasmning nomini pedagog ketidan nomlash so'raladi.

#### 3. "Sandiqchani och"

**Maqsadi:** taqlid qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ikkala qo'l harakatlarini boshqarish va muvofiqlashtirishni yaxshilash.

**Vazifa:** qutichani yoki bankani ochib, u yerdan biron bir narsani olish va nomlash.

**Jihoz:** quticha yoki ichi ko'rinadigan banka, predmetlar, rag'batlantiruvchi kichik mukofotlar.

Stol atrofiga, yerga yoki bola bilan o'tirish qulay bo'lgan boshqa joyda olib boriladi. Idishlardan birini oling, bolaning e'tiborini jalb qiladigan holatda his-hayajon va mimika orqali: "bunga qara!"-deb va unga predmet ko'rsatiladi va nomlanadi. Keyin asta-sekin predmetni qayta idishga solib, idish qopqog'i yopiladi.

Idishni bolaga berib imo-ishoralor va og'zaki nutq bilan unga uni

ochishi kerakligi ko'rsatiladi. Uni ochganda, uni maqtab va idishni chetga surib qo'yiladi. Agarda bajara olmasa, tyutorning mehanik yordamidan foydalaniladi. Ushbu mashq barcha idishlar bilan takrorlanadi.

### IV. Nutqining grammatik va bog'lanishli nutq tomonlarini rivojlantirish.

#### 1. "Poyezdcha" o'yini.

**Maqsadi:** muloqotga kirishishning muqobil shakllaridan PECS kartochkalaridan foydalanib, o'z ehtiyojlarini qisqa gaplar orqali yetkazishni o'rgatish.

**Vazifa:** poyezdchaning vagonlariga kerakli kartochkalarni joylashtirib, qisqa gaplar tuzish.

**Jihoz:** A3 formatdagi poyezd rasmi va PECS kartochkalari.

Bolaga poyezdcha rasmini berib, PECS kartochkalarini ketma-ketlikda joylashtirib gaplar tuziladi. Gaplar og'zaki nutqda izohlanib, bolaga tushunarli bo'lishi va mashqni ongli tarzda bajarishi uchun amalda ham ko'rsatiladi. Bu mashq faqatgina alohida holatda emas, balki barcha vaziyatlarda (ovqatlanish, kiyinish, ko'chaga sayrga chiqish, o'ynash, hojatga borish va h.k.) qo'llaniladi. Shu tarzda bolalarga eng oddiy ehtiyojlarini bayon etish o'rgatiladi.

#### 2. Kun tartibiga o'rgatish va bajaradigan ishlarini nomlash.

**Maqsadi:** Bolalarni kun tartibiga o'rgatish va kattalar bilan muloqotga o'rgatish.

**Vazifa:** Qurtning har bir bo'g'imiga bola bajarishi kerak bo'lgan vazifalarning

PECS kartochkalari joylashtiriladi va ta'rif beriladi.

**Jihoz:** Bo'g'imli qurt rasmi, PECS kartochkalari.

Bolaga har kuni pedagog tomonidan vizual kun tartibi ko'rsatilib, izoh berib boriladi. Vizual kun tartibidagi barcha vazifalar bajarilishi nazoratga olinadi va bolaning eng kichik harakati ham rag'batlantirib boriladi. Bola vizual kun tartibini o'zlashtirgandan so'ng, bolaning o'ziga xohish istaklari, bugun qanday o'yinlarni o'ynamoqchi ekanligini joylashtirish so'raladi. Bola to'g'ri joylashtirgan taqdirda, rag'bat sifatida bola xohlagan o'yinlar o'ynaladi.

#### 3. "Birga o'ynaymiz" o'yini.

**Maqsadi:** muloqot qobiliyatini rivojlantirish va so'z boyligini kengaytirish.

**Vazifa:** istakni bir soʻz bilan ifodalash.

**Jihoz:** mashina, velosiped, koptok.

Nutqni rivojlantirishda bolani nutqini chiqarish va muloqotga undash uchun har qanday eng kichik sababdan foydalanish kerak. Agar bola, masalan, oʻynashni xohlasa, toʻxtab: “nima qilmoqchisan?” Unga sokin ohangda, pichirlab: “Oʻynayman” - deb, yana bola bilan birga “oʻynayman” soʻzini taʼkidlanadi. U “oʻynamoq” kabi eshitiladigan soʻzni aytmaguncha ushlab turiladi. Kerakli soʻzni kerak boʻlganda tez-tez takrorlanadi. Bola soʻzlarni hosil qilishi mumkin boʻlgan koʻplab tovushlarni bilganligi uchun u endi ularni qanday shakllantirishi va qachon ishlatilishini oʻrgatiladi. Oʻz xohishlarini bir boʻgʻinli jumlar bilan ifodalab, unga har bir soʻz nimani anglatishini va agar u ushbu soʻzdan foydalansa nima boʻlishini aniq bilish imkoniyatini beriladi.

Autizm sindromli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarda ularni nutq va muloqotga oʻrgatishda nafaqat, nutqini rivojlantiruvchi metod va usullardan balki, boshqa faoliyatlarini ham rivojlantirishga qaratilgan metodikalardan foydalanish hamda ishni turli mutaxassislar bilan hamkorlikda olib borish samarali natija beradi.

Maktabgacha yoshdagi har qanday bolalarning yetakchi faoliyati oʻyin faoliyati hisoblanadi. Ammo, autizm sindromli bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklar tufayli, ularning oʻyin faoliyati oʻziga xos xususiyatlarga ega va ushbu turdagi bolalarni oʻyinga oʻrgatishda maxsus tashkil etilgan metodikalardan foydalanish kerak boʻladi.

Maktabgacha yoshdagi autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishda korreksion taʼsir turli xil usul va uslublar yordamida amalga oshiriladi. Taʼlim metodlarining turli xil tasniflari mavjud. Korreksion-rivojlantiruvchi ishda: amaliy, koʻrgazmali va ogʻzaki metodlardan foydalaniladi, u yoki bu metodni qoʻllash nutqiy nuqson xususiyati bilan belgilanadi. Amaliy metodlarga mashqlar, oʻyin va modellashtirish kiritiladi. Mashqlar – bu berilgan amaliy va aqliy harakatlarning maʼlum ketma-ketlikda bola tomonidan takrorlanishidir. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda bunday mashqlar ishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ishda asosiy oʻrinni amaliy xarakterdagi mashqlar egallaydi. Boshlangʻich bosqichlarda

harakatlar koʻrgazmalilik asosida egallanadi. Harakat usullari egallangan sari koʻrgazmalilik “yoʻqolib” boradi va ogʻzaki shaklda bayon qilish bilan almashtiriladi.

### 3.2. Autizm sindromli bolalar bilan ishlashda metodik tavsiyalar

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu albatta, oʻyin faoliyatidir. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirishda bolalarning oʻyin faoliyatiga tayanilishi kerak. Bolalar zavqlanib oʻynaydigan oʻyinlarni aniqlash uchun turli xil oʻyin turlarini sinab koʻrish zarur. Bundan tashqari, ijtimoiy hayotga moslashtiruvchi oʻyin turlaridan: qoʻshiq aytish, sheʼr oʻqish, rasm chizish, modellashtirish, rolli oʻyin va boshqalar foydalanish maqsadga muvofiqdir. Oʻyin davomida siz albatta, bolaning yonida boʻlishingiz muhim, shunda bola sizni yaxshiroq koʻrishi va eshinishi mumkin.

Autizm sindromli bola bilan bir xil tilda gaplashish, bolaning tovushni talaffuz qilishi va oʻyin xatti-harakatlariga taqlid qilishiga samarali taʼsir koʻrsatadi. Masalan, agar bola biron bir tovushni talaffuz qilsa, unga bir xil ovozda takrorlab va bola javobini kuting. Ehtimol, shunda bola siz bilan oʻzaro muloqotga kirishishni boshlashi, bola sizga taqlid qilishi va oʻz navbatida harakatlarni takrorlashi mumkin.

3. Bola bilan muloqot jarayonida imo-ishoralardan foydalanish muhim. Bolaga koʻrsatish jesti, mimika, imo-ishoralar, qoʻllar bilan tasvirlash orqali tushuntirish, bolaning nutq va muloqot jarayoniga qiziqishi uygʻonishiga turtki boʻladi. Imo-ishoralar va koʻz bilan aloqa nutqni rivojlantirish uchun asos yaratishi mumkin. Muloqot paytida nutq imo-ishoralar bilan birga ifodalansa, masalan, “ha” yoki “yoʻq” deyilganda boshni qimirlatish, bola tomonidan oʻzgalar nutqini idrok etilishiga taʼsir etadi. Autizm sindromli bola osongina taqlid qila oladigan imo-ishoralardan foydalanish, qarsak chalish, qoʻl choʻzish, qoʻlni silkish va boshqalar bola tomonidan muloqotning muqobil shakllarini tezroq oʻzlashtirishiga yordam beradi. Bolalarning imo-ishoralarni ogʻzaki nutqda sharhlab borish, muloqotning verbal

shaklini egallashiga zamin bo'ladi.

4. Autizm sindromli bolalar nutqi uchun "bo'sh joy" qoldirish kerak. Ko'pchilik ota-onalar va pedagoglar bolalarning yarim so'zidan tushunib, yoki jazava hurujlarini to'xtatish maqsadida, uning barcha istaklarini bajarishga harakat qilishadi. Bu esa aks ta'sirga ega, ya'ni bola har safar o'z istaklarini amalga oshirishi uchun turli xil salbiy xulq-atvorni namoyon eta boshlaydi. Bola o'z istak-xohishlarini ifoda etishi uchun shart-sharoit yaratib, muloqotning verbal va noverbal vositalari orqali aloqa qilishiga sabr bilan, bir oz vaqt berish kerak bo'ladi. Bolaga muloqot qilishi uchun ko'plab imkoniyatlar berish kerak.

5. Bola o'z xohish istaklarini bayon etganda, unga qisqa savollar tarzida murojaat qilish kerak, masalan, bola ayiqchani olish uchun javon oldida turgan bo'lsa, bolaga "Ayiqcha" yoki "Ayiqchani beraymi?" tarzidagi sodda, tushunarli savollar berish bolani o'zaro muloqot qilishga undaydi va uning muloqot ko'nikmalari shakllanadi.

6. Autizm sindromli bola bilan muloqot jarayonida nutqni soddalashtirish bola tomonidan nutqni tushunishiga yordam beradi. Artikulyatsiyani aniqlashtirish, kam va sekin gapirish, bola tomonidan suhbatdoshining artikulyatsiyasini ko'rish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari, bu bolaning nutqqa taqlid qilishini osonlashtiradi. Agar bolaning nutqi umuman shakllanmagan bo'lsa, asosan alohida so'zlar bilan gapirishga harakat qilish kerak (Agar u koptok bilan o'ynasa, siz "koptok" deysiz). Bola bir so'zni o'zlashtirgandan so'ng, qisqa "koptokni dumalat" kabi iboralardan foydalaniladi.

7. Bolalarning nutqi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda albatta, ko'rgazmali vositalardan to'g'ri va keng foydalanish zarur.

8. Autizm sindromli bola berilgan vazifalarni muvaffaqiyatsiz bajargan bo'lsa ham, uni o'zaro hamkorlik va e'tibor uchun rag'batlantirish, keyingi o'zaro faoliyatga zamin hozir qiladi.

9. Autizm sindromli bolalarning xulq-atvori mo'tadil emas, balki o'zgaruvchidir. Shu sababli pedagog va ota-onalar ularning xulq-atvoriga moslashuvchan bo'lishlari zarurdir. Aynan bolalarning o'zgaruvchan xulq-atvoriga mos ravishda berilgan vazifani ham qanday qisqartirishni yoki osonlashtirishni bilish kerak.

## XULOSA

"Inklyuziv ta'lim sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning zamonaviy texnologiyalari" mavzusidagi monografiyada yoritilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarni asoslashga xizmat qildi:

1. Autizm spektridagi kamchilik deb, real hayotdan ajralish, o'z qobig'iga o'ralish, tashqi stimullarga (ta'sirlovchilarga) reaksiyalarning yo'qligi, passivlik va atrof-muhit bilan munosabatlarda o'ta shikastlanishga moyillik sifatida qaraladi.

Erta bolalik autizmi bo'lgan bolalar uchun nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlar: nutqning kommunikativ funksiyasining buzilishi, exolaliya, nutqda shaxs olmoshlarning yo'qligi yoki kech paydo bo'lishi, dialogning rivojlanmaganligi, prosodikaning o'ziga xos buzilishi, neologizm, avtonom nutqqa moyillik xarakterlidir.

2. Monografiya ishida maktabgacha yoshdagi autizm sindromli bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilindi va olingan ma'lumotlarga asoslanib, ularning muloqot qobiliyatlarini shakllantirish uchun differensial pedagogik tuzatish yo'nalishlari va mazmuni ishlab chiqildi, shu jumladan inklyuziv ta'lim sharoitida autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantiruvchi jarayon modeli va nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'yinli metodikalar yaratildi.

3. Maxsus pedagogika, psixolingvistika va maxsus psixologiya bilan bog'liq maktabgacha yoshdagi autizm sindromli bolalarda nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish, nazariy tahlil qilish va umumlashtirish o'tkazildi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar me'yordagi ontogenetik rivojlanish jarayonida kommunikativ va o'yin ko'nikmalarining tuzilishi, turlari, rivojlanish bosqichlari haqidagi muammolarni keng miqyosda o'rganib chiqdi.

Adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, bolalik autizmining bir qator tasniflari mavjud va amaliyotda autizmi tashxislashning aniq bir tartiblangan, tizimli yo'nalishlaridan foydalanmaslik ma'lum bo'ldi. Biz XKT-10 va XKT-11 da bayon etilgan atamalar va tushunchalarni tanladik.

4. Autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning samarali



mexanizmlari muammo bilan bog'liq ikkita asosiy tushuncha mavjud: birinchisiga ko'ra, autizmda nutq va muloqot qobiliyatining buzilishi kognitiv nuqsonlarning mavjudligi bilan bog'liq;

ikkinchisiga ko'ra mualliflar muloqot buzilishini affektiv buzilishlar natijasi sifatida ko'rib chiqadilar.

5. Xorijiy mamlakatlarda autizm sindromli bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan psixoanalitik, xulq-atvor, psixolingvistik kabi yondashuvlar ishlab chiqilganligi o'rganildi. Milliy maxsus pedagogikada bu muammo yetarlicha rivojlanmagan bo'lib qolmoqda. Nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning individual usullari tavsiflangan, ularning shakllanish darajasini baholashga imkon beradigan diagnostika usullarining yetishmasligi mavjud. Maktabgacha yoshdagi autizm sindromli bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan va o'yin faoliyatidan foydalanishni o'z ichiga olgan pedagogik tuzatish mazmuni haqidagi savollar hanzugacha dolzarbligi ta'kidlanadi.

6. Ko'rib chiqilayotgan muammoni nazariy o'rganish jarayonida autizmlil bolalarda muloqot va o'yin ko'nikmalarini o'rganish usullari aniqlandi, kognitiv va affektiv kamchiliklarning mavjudligi sababli aloqa va o'yin faoliyatining xususiyatlari aniqlandi. Maktabgacha yoshdagi autizm sindromli bolalarda nutq va muloqot ko'nikmalarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari: verbal va noverbal muloqot vositalarining kamchiliklari, asosiy kommunikativ funktsiyalarni shakllantirishning buzilishi, sotsioemotsional, dialogik ko'nikmalar, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning o'zgaruvchanligi qayd etildi.

7. Differentsial pedagogik tuzatishni amalga oshirish uchun nazariy o'rganish natijalariga ko'ra, nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish darajasiga qarab, bolalar shartli ravishda 4 guruhga bo'lindi - yuqori, o'rta, past va juda past rivojlanish darajasi bilan. Tadqiqot har bir guruhning batafsil tavsifini beradi. Bolalik autizmi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyati muloqot qobiliyatlarini shakllantirishning o'rtacha va past, juda past darajalariga ega.

8. Shunday qilib, monografiya bolalar autizmi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va muloqot ko'nikmalarining buzilishi to'g'risida maxsus pedagogikaning nazariy bazasini to'ldirish va chuqurlashtirishga imkon berdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil. (<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>)
2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 07.01.2008-yildagi O'RQ-139-son. (<https://lex.uz/acts/-1297315>)
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. (<https://lex.uz/docs/-5013007>)
4. O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonuni, 26.12.2016-yildagi O'RQ-415-son. (<https://lex.uz/docs/3083192>)
5. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son. (<https://lex.uz/docs/-5049511>)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 13.10.2020-yildagi PQ-4860-son. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 27.02.2023-yildagi PQ-74-son. (<https://lex.uz/docs/-6391378>)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son. (<https://lex.uz/docs/-3436192>)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi To'g'risida"gi Farmoni, 07.02.2017-yildagi PF-4947-son. (<https://lex.uz/docs/-3107036>)
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi, 01.08.2017-yildagi F-5006-son. (<https://lex.uz/docs/-3290912>)
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to‘g‘risida”gi Qarori, 17.05.2007-yildagi 100-son. (<https://lex.uz/docs/-120308513>)

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 13.05.2019-yildagi 391-son (<https://lex.uz/docs/4333062?ONDATE=28.05.2021>)

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori, 11.08.2021-yildagi 510-son (<https://lex.uz/docs/-5574859>)

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 12.10.2021-yildagi 638-son. (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>)

Prezident raisligidagi videoselektor yig‘ilishi. 26.01.2022-yil.

<https://uzreport.news/society/inson-qadri-biz-uchun-qandaydir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident>

Эдельсон С.М. “Научные вопросы, связанные с биологией аутизма”. “Аутизм и нарушения развития” Научно-практический журнал Т. 17. № 1 (62) — 2019 Специальный выпуск по итогам VI Международной научно-практической конференции «Аутизм. Вызовы и решения»

Подольская О.А., Яковлева И.В. “Ранний детский аутизм: особенности и коррекция”. Учебное пособие. Елец – 2020

Григорьева А.С., Борисова Н.А. “Современные подходы к коррекции рас”. Череповецкий Государственный Университет Череповец, Россия

Mo‘minova L.R. “Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent “Spectrum Media Group” 2015-yil.

Joaquín Fuentes, Muideen Bakare, Kerim Munir, Patricia Aguayo, Naoufel Gaddour, Özgür Öner, Marcos Mercadante. “C.2 расстройств аутистического спектра”.

Syed Faraz Kazim, Maria Del Carmen Cardenas-Aguayo, Mohammad Arif, Julie Blanchard, Fatima Fayyaz, Inge Grundke-Iqbal, Khalid Iqbal “Sera from Children with Autism Induce Autistic Features Which Can Be Rescued With a CNTF Small Peptide Mimetic in Rats”. 2015 Mar 13. (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25769033/>)

Башина В.М. “Аутизм в детстве”. М.: Медицина 1999 г. 3-бет  
Гилберг К., Питерс Т. “Аутизм: медицинские и педагогические аспекты”. СПб.: ИСПиП, 1998

Полякова С.И. “Патофизиологическое обоснование персонифицированной метаболической терапии РАС. Перспективные методы лечения”. Аутизм и нарушения развития Научно-практический журнал Т. 17. № 1 (62) — 2019 Специальный выпуск по итогам VI Международной научно-практической конференции «Аутизм. Вызовы и решения».

Батышева Т.Т., Шатылова Н.Н., Быкова О.В., Коровина Н.Ю. “Ранняя диагностика расстройств аутистического спектра в практике детского психоневролога”. Методические рекомендации № 36. Москва-2014г.

Хаустов А.В. “Формирование коммуникативных навыков у детей с детским аутизмом”. Дисс. Москва-2005г.

Заваденко Н.Н., Печатникова Н.Л., Симашкова Н.В. и др. “Неврологические нарушения у детей с аутизмом, обзор литературы”. Российский национальный исследовательский медицинский университет им. Н.И. Пирогова Научный центр психического здоровья, Москва-2015

Лебединская К.С., Никольская О.С. “Диагностика раннего детского аутизма”. М.: Просвещение, 1991.

Никольская О.С. “Дефектологические проблемы раннего детского аутизма”. Дефектология. 1994. № 2. С.

М.Ю. Бобылова, И.В. Винярская, К.Ю. Быстрова, Ю.К. “Атипичный аутизм у детей: особенности соматоневрологического статуса и амбулаторного наблюдения врачом общепедиатрического профиля”. Нароваткина Русский журнал Детской неврологии том VIII-IX 4/1 2013-2014г.

Аналитическая справка подготовлена научной лабораторией Федерального ресурсного центра по организации комплексного

сопровождения детей с РАС, 2018 г. ([https://autism-frc.ru/ckeditor\\_assets/attachments/2268/analiticheskaya\\_spravka\\_po\\_issledovaniyam\\_ras.pdf](https://autism-frc.ru/ckeditor_assets/attachments/2268/analiticheskaya_spravka_po_issledovaniyam_ras.pdf))

Хапченкова Д.С., Дубина С.А., Черкай В.И. "Расстройства аутистического спектра у детей: литературная справка и собственное клиническое наблюдение". Донецкий национальный медицинский университет, г. Лиман, Украина

Григорьева А.С., Борисова Н.А. "Современные подходы к коррекции рас". Череповец, Россия

Walter E.Kaufmann. "Rett Syndrome". Greenwood, SC, USA

Xamidova M.U. "Maxsus pedagogika" o'quv qo'llanma. Toshkent - "NIF MSH" - 2020

Морозов С.А. "Детский аутизм и основы его коррекции". Москва: 2002 г.

G'Muhamedov, U.Xodjamqulov, S.Toshtemirova. "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri". Monografiya. Toshkent "Universitet" 2020-y.

Янушко Е. "Игры с аутичным ребенком. Установление контакта, способы взаимодействия, развитие речи, психотерапия". М.: Теревинф, 2004. - 136 с.

Хаустов А.В. "Формирование навыков речевой коммуникации у детей с расстройствами аутистического спектра". Учебно-методическое пособие. ЦПМССДиП Москва, 2010

Захарова Е.В. "Психолого-педагогическое сопровождение семей, воспитывающих детей с аутизмом". Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. - 2014.

41. Аптикиева Л.Р., Аптикиев А.Х., Бурсакова М. С. "Семья как фактор личностного развития ребенка". Вестник ОГУ. - 2014.

42. L.Sh.Nurmuhammedova "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" p.f.n. diss. 2007 yil. Toshkent

43. Андреева С.В. "Развитие речи детей с расстройствами аутистического спектра". Изучение и образование лиц с ограниченными возможностями здоровья. Специальное образование. 2022. № 2 (66). Special Education. 2022. No 2 (66).

44. Хаустов А.В., Богорад П.Л., Загуменная О.В., Козорез

А.И., Панцырь С.Н., Никитина Ю.В., Стальмахович О.В. "Психолого - педагогическое сопровождение обучающихся с расстройствами аутистического спектра". Методическое пособие Москва 2016

45. Alan Yau "Как и чем заниматься с аутичным ребенком". Краткое руководство для родителей. 2012 – Autism Sparks Ltd, [www.autismsparks.com](http://www.autismsparks.com)

46. Брюс Л. Бейкер, Алан Дж. Брайтман. "Путь к независимости. Обучение детей с особенностями развития бытовым навыкам". США-1997 г.

47. Черкаска Е.Н. "Детский аутизм, или Как помочь «особому» ребенку". Учебно-методическое пособие. Педагогический университет «Первое сентября», 2017. – 40 с

48. Гилберт К., Питерс Т. "Аутизм. Медицинское и педагогическое воздействие". Книга для педагогов-дефектологов. Москва: Владос-2005

49. Питерс Т. "Аутизм: от теоретического понимания к педагогическому воздействию". СПб.: Институт специальной педагогики и психологии, 1999, — 192 с.

50. Подун Ю.В. "Система речевого развития детей с сенсорными нарушениями". Текст научной статьи по специальности «Психологические науки» Cyberleninka. (<https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-rechevogo-razvitiya-detey-s-sensornymi-narusheniyami>)

51. Тарасова Н.В., Чигрина С.Г. "Исследование отношений внутри семьи, имеющей ребёнка с аутизмом, и ее отношений с социальным окружением". Аутизм и нарушения развития. Научно-практический журнал Т. 21. № 1 — 2023. 86 с.

52. Романович О.А., Кольцова Е.П. "Диагностика психофизических процессов и речевого развития детей 5–6 лет". Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2013. — с 112.

53. Холмогорова Н.Л. "Победить аутизм. Метод семьи Кауфман". Центр лечебной педагогики. Москва 2005

54. Морозов С.А. "Клинический полиморфизм и вариативность образования детей с аутизмом". Аутизм и нарушения развития. Научно-практический журнал Т. 14. № 4. 2016. С. 3—9

55. Андреева С.В. "Дистанционная логопедическая работа с младшими школьниками с расстройствами аутистического спектра и интеллектуальными нарушениями". Изучение и образование лиц с ограниченными возможностями здоровья. Специальное образование. 2021. № 2 Москва, Россия

56. Raxmanova V.S, Nurkeldieva D.A. "Alohida yordamga muhtoj bolalar reabilitatsiyasi". Metodik uslubiy qo'llanma -Toshkent.; «Navro'z» nashrivoti., 2014 yil, 160-bet

57. Ингерлейб М.Б. "Особенные дети". Эксмо; Москва: 2010 г.

58. Аршатская О.С. "Методы коррекционной помощи ребенку раннего возраста с тяжелыми формами аутизма". Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. 2016. № 1. С.

59. Башаев С.В., Подлубная А.А. "Оценка влияния игровой системы реабилитации на реабилитацию детей с аутизмом и ДЦП" Международный научно-исследовательский журнал. 2016. № 11-3 (53). С.

60. Белопольская Н.Л., Рубан О.В. "Развитие игрового взаимодействия у дошкольников с расстройствами аутистического спектра методом «Хороводные игры»". Дефектология. 2017. № 1. С.

61. Внукова М.И. "Коррекционно-педагогическая помощь детям с синдромом раннего детского аутизма". Инновационная наука. 2017. Т. 2. № 4. С.

62. Воронков Б.В., Рубина Л.П., Макаров И.В. "Детский аутизм и смысловая наполненность термина «расстройства аутистического спектра»". Психиатрия и психофармакотерапия им. П.Б. Ганнушкина. 2017. №01. С.

63. Ворошилова В.В., Волкова Э.В. "К вопросу об особенностях речевого развития у детей с ранним детским аутизмом". Перспективы науки. 2017. № 4 (91). С.

64. Горюнова А.В. "Особенности диагностики аутизма у детей первых лет жизни (лекция, часть 2)". Вопросы психического здоровья детей и подростков. 2016. № 2. С.

65. Колпакова Л.О. "Визуальное сопровождение лиц с РАС как инструмент коррекции нежелательного поведения". Психологическая наука и образование. 2016. Т. 21. № 3. С.

66. Либлинг М.М. "Игра в коррекции детского аутизма. Сообщение 2". Дефектология. 2017. № 1. С.

67. Лодинова О.А. Игра как метод коррекции эмоционального развития детей с аутизмом // Научный альманах. 2017. № 6-1 (32). С.

68. Смирнова Л.В. Обучение детей с аутизмом // Начальное образование. 2016. Т. 4. № 1. С.

EGAMBERDIYEVA NIGORA AZIZOVNA

QAYDLAR UCHUN

**INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA  
AUTIZM SINDROMLI BOLALAR NUTQI  
USTIDA ISHLASHNING ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARI**

*Monografiya*

Muharrir: X. Tahirov  
Texnik muharrir: S. Meliqo'ziyeva  
Musaxhih: M. Yunusova  
Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y. Bosishga  
ruxsat etildi 30.10.2024 y. Bichimi 60x84 1/16.  
Ofset qog'ozi. "Times New Roman"  
garniturası. Hisob-nashr tabogi. 5,5.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 2306810.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

**Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01  
+998 (94) 673-66-56**

*Faint, illegible text on the right edge of the page.*

ISBN 978-9910-780-13-4



9 789910 780134

